

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

**Azadova Gulnoza Sardorbekovna**

**5610200-“Mehmonxona xo`jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim  
yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**O`zbekistonda ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirish  
yo`llari**

**Ilmiy rahbar:**

**k.o`q.X.Abdullayev**

**Urganch 2019 yil**

# **MAVZU: O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

## **KIRISH**

### **I-BOB. EKOTURIZMNING MOHIYATI VA UNING MILLIY TURIZM XIZMATI BOZORIDA TUTGAN O'RNNINI O'RGANISHNING NAZARIY – USLUBIY ASOSLARI**

- 1.1. Ekoturizmni iqtisodiy – ijtimoiy tizim sifatida o'rganishning nazariy asoslari
- 1.2. O'zbekiston turizm taraqqiyot konsepsiyasida ekoturizmning o'rni va o'ziga xos xususiyatlari
- 1.3. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy – huquqiy asoslari

### **II-BOB. O'ZBEKISTONNING TURIZM TARAQQIYOT KONSEPSIYASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI**

- 2.1. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish strategiyasi va uning asosiy yo'nalishlari
- 2.2. Qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda ekoturizmni tashkil etishni takomillashtirish yo'llari
- 2.3. O'zbekistonning ekoturistik hududlarini rivojlantirish istiqbollari

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

## **FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbliji.** O‘zbekistonda ekoturizmning rivojlanishi uning ma’naviyat, ilm-fan, madaniyat, ma’rifat, tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarning ona tabiatimizga qiziqishini oshirish, noyob o‘simpliklar va hayvonot dunyosini saqlash va muttasil boyita borish muammolarini hal qilish imkoniyatlarinigina emas, balki iqtisodiy masalalarni mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilash, ularni ish joylari bilan to‘laroq ta’minalash, xorijiy sayohatchilarni o‘ziga jalg qiluvchi dunyoga mashhur qadimi shaharlarimiz, tarixiy yodgorliklarimiz asrab avaylanishini, Vatanimiz yanada gullab yashnab, yurtdoshlarimiz farovonligini tobora oshira borishga salmoqli hissa qo‘sish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Darhaqiqat, O‘zbekiston turizm sohasi rivojlanishida salmoqli salohiyatiga ega davlat. Bu ko’plab noyob tabiat obyektlarining mavjudligi (ko’llar, tog’ cho’qqilari), boy madaniy va tarixiy meros bilan ham bog’liqdir. Yildan yilga O‘zbekiston Respublikasiga xorijliklarning tashrifi ortib bormoqda. Oxirgi 15 yillikni oladigan bo‘lsak xorij fuqarolarining O‘zbekistonga tashrifi 15,5 marta, yoki 2002 yildagi 442,1 ming kishidan 2017 yilda 2847,9 ming kishiga yetgan. O‘zbekiston fuqarolarining chet ellarga tashrifi 2017 yilda 5182,5 ming kishini tashkil etgan, bu 2002 yilga taqqoslanganda 6,5 marta ko‘p<sup>1</sup>.

Vatanimizning ekoturizmga bog‘liq, betakror go‘zal tabiat, o‘ziga xos landshaftlari, xilma-xil noyob o‘simplik va hayvonot dunyosi, nodir, jahonshumul ahamiyatiga ega bo‘lgan arxeologik topilmalari, poleontologik qoldiqlari ham, yer yuzida kam uchraydigan geologik kesimlar, yuzlab tabiiy yodgorliklari ham xorijliklar e’tiborini tortishi tabiiy.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo hududidagi davlatlar orasida katta ekoturistik imkoniyatlarga ega va bu borada raqobatbardoshligi yuqori mamlakat. Biroq, Respublikada bu imkoniyatlardan to‘la-to‘kis foydalanish omillari mukammal ishlab chiqilmaganligi tufayli xududga turistlar kelib-ketishi qabul qilish salohiyatiga nisbatan bir necha barobar kam. Ta’kidlash kerakki, bunga jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining xalqaro turizmga ko‘rsatayotgan salbiy oqibatlari

---

<sup>1</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz). O‘zbekiston Respublika Statistika Davlat Qo`mitasi Axborotnomasi, 2018 yil.

ham sabab bo‘lmoqda..

Bunday sharoitda mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish uchun Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Bizda turizm ko‘pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo‘riqxonalar, tog‘li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiyot turizmi, ziyorat turizmi va ekoturizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalar rivojiga ham katta turtki beradi» bo‘lib qolishi lozim<sup>22</sup>.

Shuni ta’kidlash lozimki, ekoturistik resurslarga juda boy bo‘lgan respublikamizda ekoturizmning rivojlanishi talab darajasida emas. Fikrimizcha, bunga to‘sinqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri – muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar hamda milliy tabiiy bog‘larimizda Markaziy Osiyoda kamyob hayvonlar erkinlikda yuzlab, minglab yashashi uchun yetarli darajada moddiy-texnika bazasining yaratilmaganligidadir. Xolbuki, bu ekoturistlarni juda qiziqtiradi. Qolaversa, jahon talablariga javob bera oladigan yangi milliy tabiiy bog‘larni yaratish uchun birinchi navbatda ekoturizmning O‘zbekistonidagi salohiyat ko‘rsatkichlari, maqsadi, tashkiliy-huquqiy, ekologik ta’lim-tarbiya va ijtimoiy-iqtisodiy xizmat va servis sohasini rivojlantirish masalalari bo‘yicha omillar tizimi puxta ishlab chiqilishi lozim.

Ekoturizmning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’minalash uchun tabiatdan turistik yo‘nalishda oqilona foydalanishdir. Demak, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida ekoturizmning iqtisodiyotdagagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash, rivojlanish parametrlarini tahlil qilib, uni respublikamiz turizmiga tatbiq etish, ekoturizm faoliyati bozorini tashkil qilish hamda uning istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga molik. Sohada yechimini kutayotgan dolzarb muammolar ko‘p. Ularni chuqur o‘rganish, ilmiy tahlil qilish orqali olingan xulosalar hamda

---

<sup>22</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi, 2019 yil 19 yanvar.

sohada to‘plangan bilimlarni umumlashtirishga doir takliflar kiritish zarurligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon turizmi industriyasiga o`tgan asr ohirlaridan asta-sekin kirib kela boshlagan. Ekologik turizm endilikda jadal sur’atlarda rivojlanayotgan sohalardan biriga aylandi. Eslatib o`tish kerakki, Yevropa va Osiyoning turizm rivojlangan mamlakatlaridagi ekoturistik tashkilotlari erishgan yutuqlar sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ko`rsatkichlari ilmiy tadqiqotlar, maxsus adabiyotlarda o‘rganilgan. O`zbekistonda esa bu masalaga yetarli darajada o`rganilmagan.

O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgandan keyin mamlakat iqtisodchi olimlari va amaliyotchilari tomonidan turizmning iqtisodiyotda tutgan o`rni va roli, iqtisodiyotga ta’siri, tashkiliy-iqtisodiy muammolari ma’lum tomonlari o‘rganilmoqda. Lekin xorijiy mamlakatlar turizmining boy tajribasi, xususan, ekoturistik faoliyati respublikamizda endi o‘rganilmoqda. Buning ustiga ularda tarmoq faoliyatining ba’zi jihatlarigina aksini topgan, ekoturizmning umumiyligi turizmdagi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o`rni esa haligacha yetarli darajada o`rganilmagan. Endilikda iqtisodiyotning muhim bo`g`inlaridan biri hisoblangan ekoturistik tashkilotlar faoliyatini ilmiy o`rganish, tahlil qilish, sohadagi yutuqlarni, shuningdek, turistik korxonalarga, turfirmalarga, xususiy sektorlarga jumladan, ekoturizm bilan shug`ullanuvchi tashkilotlarga tatbiq etish zarur.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsad va vazifalari.** O‘zbekistonda ekoturizmni tashkil qilish va rivojlantirish yo`llari yuzasidaan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish ishning maqsadini tashkil etadi.

Shuningdek, turizm sohasini isloh qilishda ekoturizm faoliyati va uning bozorini tashkil etishni takomillashtirish, uning umumiyligi turizmdagi o‘rnini, aniqlash xalqaro turizm bozorida milliy turistik mahsulotlar raqobatbardoshligini va turmahsulotlar eksportini oshirishni ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni zamon talablariga mos holda o‘rganib, ekoturistik faoliyatni boshqarishni

takomillashtirishda ilmiy-amaliy yo‘nalishlarni ishlab chiqish ham ana shu maqsadga xizmat qiladi.

Qo‘yilgan maqsadga muvofiq bitiruv malakaviy ishda quyidagi vazifalarni bajarish belgilangan:

-ekoturizm industriyasini rivojlantirishni bir butun iqtisodiy-ijtimoiy tizim sifatida o‘rganib bu jarayonga tegishli qonunlar va boshqa me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar berish;

-ekoturizmni mahalliy uyushma (birlashma) darajasida rivojlantirish orqali mahalliy aholining ijtimoiy muhofazasini yaxshilash yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

-ekoturizmning rivojlanish shart-sharoitlari va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini baholash;

-O‘zbekistonning ekoturistik hududlarini rivojlantirish istiqbollari yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

-milliy davlat hududini ekoturizm bo‘yicha rayonlashtirishni takomillashtirish va uning istiqboldagi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini aniqlash.

**Bitiruv malakaviy ish obyekti** sifatida ekoturizm tizimidagi mulkchilikning shakllariga mansub korxona va tashkilotlar xususan, O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun mas’ul bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi va “Ekosan” halqaro jamg‘armasi qoshidagi “Ekotur” markazi, O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, shuningdek, ekoturizmni rivojlantirish bilan bog‘liq boshqa mahkama va idoralar hamda turistik tashkilotlar tanlandi.

**Bitiruv malakaviy ish predmeti** ekoturizmning O‘zbekiston Respublikasi turizm xizmati bozoridagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy-uslubiy asoslarini** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Statistika, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitalari,

Jahon turizm tashkiloti, O`zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo`mitasi hujjatlari hamda chet el va respublikamiz iqtisodchi olimlarining o`rganilayotgan muammolarga doir asarlari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ish uchun shuningdek, turistik korxona va firmalarning hisobotlari, va shuningdek, muallifning maxsus izlanishlari asosida aniqlangan materiallar ham statistik asos bo`lib xizmat qildi. Konseptual g`oyalarni ishlab chiqish va asoslashda o`rganilayotgan muammoga tizimli yondashish talablaridan kelib chiqqan holda qaraldi.

**Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 ta bob, 6 ta paragraph, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning birinchi bobi** ekoturizmning mohiyati va uning milliy turizm xizmati bozorida tutgan o`rnini o`rganishning nazariy – uslubiy asoslariiga bag`ishlangan bo`lib, unda ekoturizmni iqtisodiy – ijtimoiy tizim sifatida o`rganishning nazariy asoslari, O`zbekiston turizm taraqqiyot konsepsiyasida ekoturizmning o`rni va o`ziga xos xususiyatlari hamda O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari yoritib berilgan.

**Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobi** O`zbekiston turizm xizmati bozorida ekoturizmni rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari va istiqbollariga bag`ishlangan bo`lib, unda O`zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish strategiyasi va uning asosiy yo`nalishlari, qo`riqlanadigan tabiiy hududlarda ekoturizmni tashkil etishni takomillashtirish yo`llari hamda O`zbekistonning ekoturistik hududlarini rivojlantirish istiqbollari yoritib berilgan.

# **I-BOB. EKOTURIZMNING MOHIYATI VA UNING MILLIY TURIZM XIZMATI BOZORIDA TUTGAN O'RNNINI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI**

## **1.1. Ekoturizmni iqtisodiy - ijtimoiy tizim sifatida o'rganishning nazariy asoslari**

Tabiat quchog'iga sayyohat qilishni tashkillashtirish to'g'risida fikr yuritganda, ko'pincha "ekoturizm" atamasi tilga olinadi. Aslida ekoturizm, bir tomonidan, turistik bozorda jadal o'sib kelayotgan tarmoq, ikkinchi tomonidan esa insoning tabiatga ijobiy ta'siriga asoslangan tizim. Qolaversa, u turizm infratuzilmasining ajralmas qismi bo'lib, faqat g'oyagina emas, balki, umumiylar turizmning aniq turi, hisoblanadi. Uning atrof-muhitga ta'siri turlicha (salbiy, neytral va ijobiy) bo'lishi mumkin. "Ekoturizm" qo'riqxona hududlari va tabiiy bog'larning zamonaviy ish yuritish faoliyatida keng qo'llanilmoqda. Bu sayyohat turining dunyo miqyosida jadal o'sishiga sabab faqat atrof-muhitning ahvoli yomonlashishigina emas, balki, hordiq chiqariladigan mashhur joylar-tog' bag'ridagi kurortlar, suvi iliq dengizlarning qirg'oqlari, tekisliklar va o'rmonzorlar borgan sari ko'proq o'zlashtirilayotganligi hamdir.

"Ekoturizm" atamasi o'rniga ko'pincha boshqa atamalar, ya'ni, "tabiiy turizm", "barqaror turizm", "yashil turizm", "mas'uliyatli turizm" va "hayriya turizmi" kabi atamalar ham ishlatiladi. Ba'zi unsurlari bir xil bo'lsa ham, ular aslida bir-birining sinonimi hisoblanmaydi va biri ikkinchisining o'rnini egallamaydi. Ekoturizm – tabiiy turizm (tabiatga sayyohat) ning bir turi. U tabiiy turizmning ba'zi bo'laklarini, masalan, sarguzashtli turizm–otda sayr qilish yoki kanoeda suzish kabilarni o'z ichiga olishi mumkin.

Ekoturizmning quyidagi ta'rifi ko'proq ishlatiladi: "Ekoturizm" tabiiy turizm bo'lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushinishni o'z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo'lib, "tabiiy muhit" madaniy tarkiblarni, "ekologik barqarorlik" mahalliy aholi uchun tegishlich daromadni va foydalaniyotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o'z ichiga oladi. Ekoturizm

turizmning boshqa turlari kabi ekologik barqaror bo‘lishi, sayyoohlarga zavq-shavq baxsh etishi va mahalliy aholiga daromad keltirishi lozim. Bundan tashqari, tabiiy va madaniy muhitga “mos tushishi” kerak. “Mos tushishi” degan so‘zlarining ma’nosi shuki, bu faoliyatning uslubi, hajmi va xili landshaftning ko‘lamni va xarakteriga, mahalliy aholining urf-odatlariga to‘g‘ri kelishi zarur.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi ta’rifiga ko‘ra, “ekologik turizm yoki ekoturizm tabiat muhitiga nisbatan mas’uliyat bilan sayohat qilishga, hududlarni tabiatiga ziyon yetkazmagan holda o‘rganish hamda betakror, go‘zal joylaridan zavq olish maqsadida tabiatni muhofaza qilishga ko‘maklashadi, atrof-muhitga “yumshoq” ta’sir etadi, mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtiradi va shu faoliyatdan ularning imtiyozlar olishini ta’minlaydi<sup>5</sup>”

Turizm jamiyati esa “ekoturizmni tabiiy hududlarga mas’uliyat bilan sayohat qilish natijasida tabiatni muhofaza etishni ta’minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi<sup>6</sup>”, deb hisoblaydi.

“Ekologik turizm” tushunchasining alomatlaridan iloji boricha ko‘prog‘ini chuqurroq tushunish uchun I. Zorin va V. Kvartalnov o‘zaro bog‘langan “ekotizim”, “ekologiya”, “ekologik sayyohat etikasi” kabi tushunchalar tizimini taklif qilishadi. Ayniqsa, oxirgi tushuncha ahamiyatga molik. Uni jonli tabiatga, borilayotgan landshaftlarga, u yerda yashovchi kishilarga nisbatan hurmat kodeksi, deb sharhlanadi.

Qozog‘istonlik yana bir mutaxassis R.Xabiraxmonovning ta’kidlashicha, “ekoturizm alohida soha bo‘lishi, uning rivojlanishi uchun esa alohida ko‘rildigan hududlar va obyektlar, aynan qo‘riqxonalar, milliy va tabiiy bog‘lar, tabiat yodgorliklari, tarixiy-memorial bog‘lar bo‘lishi lozim”. J. Aliyeva ham ekoturizm o‘z rivojida alohida qo‘riqlanadigan hudud resurslariga tayanishi lozim, deb hisoblaydi. Uning fikricha, “ekoturizm” noyob va yo‘qolib borayotgan hayvonlar, o‘simpliklar, ekotizimlar va tabiiy komplekslarni muhofaza qilishni; inson salomatligini ruhan va jismonan tiklashni; ekologik bilim va tarbiyani o‘z ichiga

---

<sup>3</sup> “O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish konsepsiysi” Ekologiya xabarnomasi 2007 № 6 10-b .

<sup>4</sup> O‘sha manba, 10-b.

<sup>5</sup> O‘sha manba, 11-b.

oladi.

J.Aliyevaning fikricha, ekologik turizmga ko‘pincha ommaviy turizmning muqobili sifatida qaraladi, hozir u turistik faoliyatning eng istiqbolli va dinamik rivojlanuvchi shakllaridan hisoblanadi. “Ekologik turizm” tushunchasi ta’riflari tahlili ko‘rsatadiki, umumlashtirgan holda uning quyidagi belgilarini farqlash lozim:

- yovvoyi tabiatdan turistlar tashrif buyuradigan muhit sifatida bilvosita foydalanish;
- atrof-muhitga minimal zarar yetkazish;
- odamga rekratsion va ijobiy tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish;
- yangi landshaft manzillari bilan tanishish, flora va faunalar muhofaza qilinishi uchun ularning namunalarini o‘rganish;
- ekoturizmdan tushgan mablag‘lardan dunyodagi barcha hududlar flora va faunasini asrash va tiklash uchun foydalanish;
- barcha turistlar va xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarning jonli tabiatga va mahalliy aholiga hurmat kodeksiga rioya qilishlari va boshqalar.

“Ekologik turizm” tushunchasini umumlashtirish quyidagi xulosalarga asos bo‘la oladi: turizmni tashkil qilishning yuqorida ko‘rsatilgan alomatlarida shakllangan tamoyillar lokal emas, balki, global xarakterga ega. Shuning uchun bu tamoyillar jahonning ayrim qismlari yoki yer, suv va havo bo‘shlig‘ining ayrim qismlarida emas, balki, butun dunyodagi turistik faoliyat sohasiga taalluqli bo‘lishi lozim.

Shuningdek, “ekologik turizm” tushunchasini nazariy asoslash mintaqada yashovchi ko‘pchilik aholining ongini ekoturizm talablariga moslashtirishga imkon beradi. Bu esa, o‘z navbatida, tabiiy boyliklarga zarar yetkazmagan holda turistik faoliyatni rivojlantirishning optimal texnologiyasini asta-sekin shakllantira borish uchun zamin bo‘ladi.

Shunday qilib, ekoturizm tizimi asosida turistik faoliyatning turli xillarda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tamoyillar yotadi. Ular bilimni oshiradigan yoki sarguzasht sayyohatlari (piyoda, otda, suvda, tog‘da, sayr va hokazo), talabalar

ta'tillari, ornetologik turlar, ilmiy turlar va ekspeditsiyalar, dam olish ekskursiyalari, bolalar dam olish maskanlari va hokazolarni o'z ichiga oladi.

Ekoturizmga bo'lgan qiziqish haqiqiy turistik tajribaga hamda tabiatni qo'riqlashga talab oshib borayotgani tufayli paydo bo'ldi.

Yuqorida berilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, fikrimizcha, ekoturizm – bu, turizmning tabiiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan moslashadigan hamda tabiatning tabiiy muhitda uyg'unlashuvini targ'ib qiladigan va mahalliy aholining turmush tarzini o'zgartiruvchi maxsus sohasidir.

Ekoturizmni rivojlantirishga sabab bo'ladigan asosiy omillar tabiatga sayyohat va uni muhofaza qilishni o'zaro birlashtiradi hamda shu tariqa atrof-muhit himoyasining iqtisodiy rag'batni bo'lib xizmat qiladi. Yana bir afzalligi shundaki, u yovvoyi tabiat bilan jamiyatning turli-tuman madaniy qadriyatlari orasidagi munosabatni yaxshiroq tushunish hamda bu haqda ko'proq axborotlar olish imkoniyatini beradi. Asosiy vazifa ekoturistik soha tijorat jihatidan o'zini oqlashi, ekologik jihatdan barqaror bo'lishi va madaniyatga nisbatan mas'uliyat bilan yondashuv mexanizmini yaratishdan iborat.

Turizmni rejalashtirishga javobgar shaxslar, turoperatorlar, menejerlar, marketing sohasi xodimlari, ommaviy axborot vositalari "ekoturizm" atamasini ancha keng ma'noda ishlatib kelishdi. Natijada bu tushuncha qator turistik mahsulotlarga nisbatan qo'llanildi. Afsuski, ular mantiqan yuqorida bayon qilingan ta'riflarga to'liq mos kelmaydi.

"Ekoturizm" atamasining keng ma'noda qo'llanilishi baxslarga sabab bo'ldi va boshqa atamalar, masalan, "barqaror turizm", "minimal ta'sirli turizm", "hamkorlik asosidagi turizm", "mas'uliyatli turizm" atamalarining ishlatilishiga olib keldi. Ammo atamalardan hech biri yoki ularning muqobili ekoturizm bilan turizmning boshqa xillari orasidagi chegarani aniq belgilab bera olmaydi.

Xo'sh, tabiat turizmi va ekologik turizm turizmning oddiy xilidan nimasi bilan farqlanadi?

Qirg'izistonlik mutaxassis A. Toktagulovaning fikricha, birinchidan, eng avvalo, ekoturizm–butun dunyoda tavsiya qilingan, yaxshi ahvolda saqlangan

tabiat go'shalari (milliy va tabiiy bog'lar; rezervatlar va qo'riqlanadigan boshqa tabiiy hududlar) ga sayyohat qilish va u yerlarga tashrif buyurishdir.

Ikkinchidan, ekoturizm muayyan, ancha qat'iy axloq qoidalariiga riosa qilishni ko'zda tutadi. Bu qoidalarga riosa qilish shu soha rivojlanishidagi eng muhim shart hisoblanadi.

Uchinchidan, ekoturizm tabiiy muhitga juda kuchsiz salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni, deyarli zarar qilmaydi. Shuning uchun uni ba'zan "yumshoq turizm" deb ham atashadi. Aynan shu sabab bilan ham u qo'riqlanadigan hududlarda tabiiy resurslardan foydalanuvchi yagona turizm bo'lib qoldi.

To'rtinchidan, ekoturizm qoidalariada ko'zda tutilishicha, mahalliy aholi faqat xizmat ko'rsatuvchi xodimlargina bo'lib qolmay, balki, shu qo'riqlandigan hududda yashayveradi, oldingi hayot tarzini davom ettiradi, tabiatga zarar yetkazmagan holda o'z an'anaviy xo'jalik faoliyatini yuritaveradi. Tabiiyki, bu hol mahalliy aholiga muayyan daromad keltiradi, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi.

Beshinchidan, ekoturizm-sayyohatchilar uchun hordiq chiqarishni, ko'ngil ochishni va ekologik bilimlarni oshirishni uyg'unlashtirgan turizmdir.

Shunday qilib, ekoturizm barqaror turizmga monand bo'lishi lozim. U uzoq muddatli davrni, ya'ni, hozirgi va kelajak avlodni ko'zda tutib, aniq etnik va madaniy xususiyatlarga moslashishi, ijtimoiy adolat talabalariga javob berishi, ekologik jihatdan beziyon, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq va foydali bo'lishi lozim.

Ekoturizmni faqat foyda keltiradigan soha deb hisoblash mumkin emas. Bu faoliyat turi agar maqsadga muvofiq doirada amalga oshirilmasa, uning qoidalari va talabalariga riosa qilinmasa, tabiatga jiddiy salbiy ta'sir qilishi va noxush oqibatlarga olib kelishi tabiiy. Uning salbiy oqibat va natijalari nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Eng avvalo, o'simliklar nobud bo'ladi, payxon qilinadi, yer o'piriladi va tuproq zichlashib ketadi, hayvonlar bezovtalanadi, qochishga tushadi, bola ochishga xalaqit beriladi, ov natijasida yo'q qilinadi, ovqatlanish tarzi o'zgaradi, turlari ayniydi, ular notabiyy to'planadi, suvda yashaydiganlarining

hayot tarzi o‘zgaradi, suv o‘simliklariga ziyon yetadi, biotipning buzilishi, oziq moddalarning yemirilishi va yo‘qolishiga olib keladi (tog‘li joylarda, o‘rmon yong‘ini xavfi), suvning ifloslanishi va evtrofikatsiya yuz beradi, noyob turlar kamayadi, hayvonlarning hayot tarzi o‘zgaradi, qoyalar yemiriladi, tashqi qiyofa xunuklashadi, marjon qoyalar shikastlanadi, baliqlar turi kamayadi, suv havzalari qirg‘oqlaridagi o‘simliklar payxon bo‘ladi, qirg‘oqdagi tuproq o‘piriladi, zichlashadi, o‘simliklar nobud bo‘ladi, tasodifan hayvonlar shikastlanadi, hayvonlar turmush tarzi o‘zgaradi.

Demak, ekoturizm doimo davlat, jamoat tashkilotlari nazoratida bo‘lishi, unga doir qonunchilikka og‘ishmay amal qilinishi lozim. Ekoturizmning barcha xillarini ikki asosiy guruhga tasniflash mumkin:

Birinchi guruhga qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar va akvatoriyalar chegarasi ichidagi ekoturizm kiritilsa, ikkinchi guruhga qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar va akvatoriyalar chegarasidan tashqaridagi ekoturizm kiritiladi. Birinchi guruhga ekologik turizmning avstraliya modeli to‘g‘ri kelsa, ikkinchi guruhga nemis yoki g‘arbiy Yevropa modeli mos tushadi.

Mutaxassislar fikricha, Markaziy Osiyo hududida ekoturizmni amalga oshirishning keng imkoniyatlari mavjud. Bu mintaqada alohida qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar bor, ekosistemalar va landshaftli joylar turli-tuman va estetik jihatdan juda chiroyli, shuningdek, ekologik va bioqlimiy jihatdan maqsadga muvofiq, transport uchun qulay va infratuzilma mavjud, hududlar va yo‘nalish (marshrut) lar ma’lum va mashhur.

Turizmning global axloq kodeksida ta’kidlanishicha, “...turistik infratuzilma obyektlari va turistik faoliyat turlarini shunday rejalashtirish kerakki, ekosistemalar va biologik turli-tumanlikni tashkil qiluvchi tabiiy merosni himoya qilish ta’minlansin hamda yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan fauna va flora turlari muhofaza qilinsin; turistik jarayonlarning ishtirokchilari va ayniqsa, professional xodimlar o‘z faoliyatlariga qo‘yiladigan ayrim cheklashlar va me’yorlarga ko‘nikishlari lozim. Bu gaplar asosan tabiiy bog‘lar yoki qo‘riqlanadigan qo‘riqxonalar va

alohida nozik joylardagi faoliyat turlariga tegishli”<sup>14</sup>.

Ekoturizmning maqsadlaridan biri noyob fauna va florani asrab-avaylash, kelgusi avlod uchun saqlashdan iborat. Yo‘qolib borayotgan hayvon turlari, qushlar, reptiliyalar, baliqlar, o‘simliklar va hatto, hasharotlarga bo‘lgan talab, tabiiyki, taklifning shakllanishiga olib keldi. Iqtisodiyotning yangi xufyona sohasi paydo bo‘ldi. Nafaqat an’anaviy soha, masalan, Afrika uchun karkidon shoxi, fil suyagi, sherlarning tishlari, balki, “Qizil kitob”ga kiritilgan to‘tiquishlar, lochinlar, gekkonlar, ilonlar, tropik baliqlar, shuningdek, o‘rgimchaklar, qo‘ng‘izlar, chayonlar ham kantrabanda obyektlari bo‘lib qoldi. Bularning hammasiga yevropalik va Osiyodagi ba’zi mamlakatlar kolleksionerlarida ham talab kuchaydi.

Ekzotik tovarlarning narxi qora bozorda ancha yuqori: angola pitoni 65 ming AQSh dollari, kamyob afrika qo‘ng‘izi “kolofong” 15 ming dollar va hokazo. O‘rgimchaklar va tropik baliqlarning noyob turlari ham qimmat baholanadi. Mayda reptiliyalar va hasharotlarni kichik idishlarda olib o‘tishga harakat qilishi, lekin bunda atiga 20–30% “mol” tirik qoladi. Biroq, shuning o‘zi ham katta daromad olish uchun yetarli bo‘ladi. Tabiiyki, bunday maqsaddagi sayohat hech bir mamlakatda ma’qullanmaydi va “turizm”-ning bunday sohasi jinoiy qonunchilik bilan ta’qib qilinadi.

Ba’zi hayvonlardan ekoturizm obyekti sifatida foydalanish ham nobudgarchilikdan ko‘ra samaraliroqdir. Iqtisodchilarning hisob-kitoblari bo‘yicha Amboseli milliy bog‘ida (Keniya) bitta sher har yili 27,0 ming dollar, fillar to‘dasiga esa 610 ming dollar turistik daromad keltiradi. Bu mablag‘ hayvonlarning terisi va a’zolari qiymatidan ancha yuqori bo‘lib ularni muhofaza qilish va turlarini tiklash harajatlarini qoplaydi.

Shunday qilib, tabiat turizmi va ekologik turizm noyob va yo‘qolib borayotgan turlarni muhofaza qilish bilan uzviy bog‘liq, chunki ularning ko‘pchiligi ekzotik hisoblanadi va ekoturizmning obyektlariga aylanadi. Bu gap faqat hayvon va o‘simliklarga emas, balki, umuman, ekosistemalar va tabiiy

---

<sup>14</sup> Глобальный этический кодекс туризма. – Сантьяго, Чили, 1 октября 1999 г.

komplekslarga ham taalluqlidir. Boshqa tomondan, noto‘g‘ri rejalarshirish tufayli turistik “yuk” ning oshib ketishi, yovvoyi tabiat “sovg‘alari”ning o‘ziga xosligi va qimmatbaholigi ba’zi turlar muvozanati yo‘qolishi va tabiat omillari buzilishiga sabab bo‘lmoqda. Hududlarning noyob turlari va ekotuzilmani mahalliy jamoalar uchun hayotiy resurs deb qarash lozim. Shu bois ularning muhofazasi mahalliy madaniyatni himoya qilish bilan uzviy bog‘liq.

## **1.2. O‘zbekiston turizm taraqqiyoti konsepsiyasida ekoturizmning o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari**

O‘zbekistonda turizm katta imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, uning yalpi milliy mahsulotdagi ulushi atiga 0,1% ni tashkil etadi. Bu sohada 6 mingga yaqin odam band bo‘lsa-da, sayyoohlarga xizmat ko‘rsatadigan kamida 30 mingta qo‘sishimcha ishchi o‘rinlari zarurligini alohida ta’kidlash lozim. Bundan tashqari, mehmondorchilikni o‘rniga qo‘yish uchun sohaga tovarlar yetkazib beradigan va har xil xizmatlar ko‘rsatadigan boshqa sohalar–energetika, kommunal xo‘jalik, yo‘l xizmatlari, jamoat xavfsizligi, tibbiyot, sug‘urta, banklar, savdo, umumiyligini ovqatlanish, maishiy xizmat, tashqi siyosat, xalqaro aloqalar va hokazolar (xalq xo‘jaligining 20 dan ortiq tarmog‘i) kamarbasta bo‘lishi kerak. Biroq, turizmning o‘ziga xos tomonlari shundaki, unda garchi, xizmat ko‘rsatish darajasi va sifatini baholash mumkin bo‘lsa ham, hech qanday o‘lchovlar bilan baholab bo‘lmaydigan “samaralar” – taassurot, ma’naviy ozuqa, qoniqish, estetik zavq-shavq kabilar o‘ziga xos kasb etadi.

Ma’lumki, tovarlar bilan savdo qilish xizmatlar bilan savdo qilishdan farqlanadi. Xizmatlar o‘ziga xos “mahsulotlar” bo‘lib, transport, kommunikatsiya, qurilish, sug‘urta, moliya, kompyuter va axborot xizmatlarini, buxgalterlik hisobi, boshqaruv maslahati va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Xizmatlarning narxini belgilash uchun asos bozor hisoblanadi. Uni tomonlar bitim tuzish paytida kelishib olishadi. Turizm pravayderlar taklif qiladigan ana shunday xizmatlar majmuidir. Turizmda tovar (obyekt, mamlakat) xaridorga olib kelinmaydi, aksincha, xizmatlar iste’molchisi (xaridor) unga keladi.

Xizmatlar eksporti, deganda doimiy yashash joyi hisoblanmagan

mamlakatga dam olish, xizmat yuzasidan, xususiy ish va boshqa maqsadlar bilan tashrif buyuruvchi shaxslarning xarajatlari tushuniladi. U sayyohat (tur) ga to‘langan haq, tashrif buyurilgan mamlakatda xorijiy turistlarga ko‘rsatilgan pullik xizmatlar haqi, mehmonhonalar va boshqa joylashtirish makonlarida ajratilgan xonalar haqi, sovg‘a (suvenir) tovarlar sotishdan, xalqaro transport xizmatidan ko‘rilgan foydani o‘z ichiga oladi. O‘z navbatida, mehmonxona xo‘jaligining daromadlari–xonalarga to‘lanadigan haq, ovqatlantirish uchun ko‘rsatiladigan xizmatlar haqi, restoranlar, barlar, tungi klublardan foydalanish, banketlar va konferensiyalar tashkil etish, transport bilan ta’minlash, teatr chiptalari, sovg‘alar sotish va boshqa xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan daromadlardir. Turizm importi mamlakat fuqarosining turli maqsadlarda va bir yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga mamlakatdan chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan iste’mol xarajatlari so‘mmasidan iborat. Bu ko‘rsatkichlar safarni tayyorlash va amalga oshirish xarajatlarini, sayyohat vaqtida va tashrif buyuriladigan joylarda paydo bo‘ladigan xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Infratuzilma cheklangan joyda turistlar uchun zarur xizmatlar minimal darajada ko‘rsatiladi. Shu munosabat bilan turoperatorlar bu joylardan ko‘proq tranzit obyektlar sifatida foydalanishadi.


O‘zbekiston turizmi katta imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramay, murakkab o‘tish jarayonida bir qator muammolarga duch kelmoqda. 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi xalqaro turizm bozoriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Jahon turizmi katta yo‘qotishlar qilishi mutaxassislar tomonidan bashorat qilinmoqda. Respublikamiz rahbariyati qo‘llayotgan tezkor choralar natijasida global inqirozning iqtisodiyotimizga ta’siri sezilarli darajada himoyalanmoqda.

2017 yilda O‘zbekiston Respublikasida turistik firma va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahrida (321 ta) joylashgan bo‘lib, ular tomonidan 70,8 ming xorijlik fuqarolarga xizmat ko‘rsatilgan. Samarqand viloyati bo‘yicha esa 57 ta turistik firma va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ular tomonidan 13,1 ming xorijlik fuqaroga xizmat ko‘rsatilgan. Xorazm viloyati bo‘yicha esa 8 ta turistik

firma va tashkilotlar mavjud, ular tomonidan 51,2 ming xorijlik fuqaroga xizmat ko‘rsatilgan (1.2.1.-diagramma).

### 1.2.1.-diagramma<sup>3</sup>

**2017 yilda turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashiklarning soni xududlar kesimida**




Xorijlik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi MDH davlatlari orasida Qozog'iston Respublikasiga to‘g‘ri keladi - 1783,8 ming kishi (yoki MDH davlatlaridan kelganlarning 67,7 %), Tojigiston 261,9 ming kishi (9,9 %), Rossiya 143,9 ming kishi (5,5 %), qolgan davlatlar 16,9 % (bular Turkmaniston (62,5 ming kishi), Ozarbayjon (4,3 ming kishi), Belarus (3,0 ming kishi), Ukraina (0,7 ming kishi) (1.2.2.-diagramma).

<sup>3</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasining rasmiy sayti.

## 1.2.2.-diagramma<sup>4</sup>


### 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo‘yicha taqsimoti, ming kishi



2017 yilda xorijlik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi uzoq xorijiy mamlakatlar orasida Turkiyaga to‘g‘ri keladi (55,2 ming kishi), keyingi o‘rinlarda Koreya (37,4 ming kishi), Xitoy (19,7 ming kishi), Germaniya (7,8 ming kishi), BAA (5,8 ming kishi), Fransiya (5,7 ming kishi), Isroil (4,2 ming kishi), Yaponiya (4,1 ming kishi), Pokiston (3,8 ming kishi), Buyuk Britaniya (3,3 ming kishi), Malayziya (3,2 ming kishi), AQSh (1,5 ming kishi) va boshqa davlatlar (61,0 ming kishi) (1.2.3.-diagramma).

## 1.2.3.-diagramma<sup>5</sup>

### 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasiga uzoq xorijiy davlatlardan kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi



<sup>4</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasining rasmiy sayti.


<sup>5</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasining rasmiy sayti.

Oxirgi 5 yillikni ko‘radigan bo‘lsak, faoliyat ko‘rsatayotgan turistik firma va tashkilotlarning soni oshgan. Misol uchun 2012 yilda ularning soni 345 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilga kelib 104 taga ko‘paygan va 449 taga yetgan.

Xuddi shunday xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar ham 2012 yilda 203,7 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilda 782,7 ming kishini tashkil etgan. Ulardan qabul qilinganlari 2012 yilda 102,4 ming kishidan 2017 yilda 167,4 ming kishiga yetdi (1.2.4.-diagramma).

#### **1.2.4.-diagramma<sup>6</sup>**

##### **Turistik firma va tashkilotlarning soni va xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar**



Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar mos tarzda respublikamizga kelayotgan sayohatchilar oqimi ham yil sayin ortmoqda.

Bu kabi yutuqlarga erishishda qator omillarning ta’siri katta. Ular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

birinchidan, xalqaro obro‘ga ega bo‘lgan va yaxshi reklama qilingan marshrutlar (Toshkent–Samarqand–Buxorom–Xiva) ko‘p yillardan buyon faoliyat ko‘rsatib, katta tajriba to‘plagan. 2017 yilda ularning hissasiga barcha xorijiy

<sup>6</sup> [www.stat.uz](http://www.stat.uz) – O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasining rasmiy sayti.

mehmonlarning asosiy qismi to‘g‘ri keldi;

ikkinchidan, ixtisoslashtirilgan yo‘nalishlar-Termiz, Qarshi, Navoiyga chet el turistlari ma’lum maqsadlar (arxeologiya, etnografiya, tabiat manzaralari) bilan kelishadi. Lekin bu sohadagi turistik mahsulotlar ommaviy tus olgani yo‘q;

uchinchidan, ba’zi hududlar, masalan, Farg‘ona vodiysi, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari tranzit yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda, chunki ularni ommaviylashtirish uchun hali aytilgan yo‘nalishlarga nisbatan ancha ko‘p mablag‘ talab qilinadi.

Xorijlik va mahalliy turistlarga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida ham yillar davomida barqaror dinamikaga erishilib, mutasil ravishda o‘sish kuzatilmoqda.

O‘zbekistonga turistik yoki xususiy yo‘nalish bo‘yicha tashrif buyuruvchi shaxslardan kamida 10%i o‘z sayyohatlarining ekologik jihatlari bilan qiziqishadi. Ular yoki tabiiy hududlar (bog‘lar, tog‘lar, o‘rmonlar, ko‘llar) ga tashrif buyurishadi, yo bo‘lmasa, yaqinroq qishloq joylarga bir kunlik ekskursiya qilishadi. Ularning kamida 60%i aralash turga ehtiyoj sezishadi, xususan, etnografiya bilan ekologiyaga qiziqishadi. Demak, tashkiliy turistlar ekologik turlarga “ixtisoslashishmoqda”. Ekologik turizmning umumiyligi bozoridagi aniq o‘rnini ko‘rsatish qiyin, albatta. Ko‘pincha uni boshqa turistik xizmat turlaridan ajratish ham qiyin. Lekin turizmdagi bu yangi yo‘nalish hissasining hali juda pastligi aniq. Bu sohaning nisbatan kam o‘rganilganligi va istiqbolli ekanligi uni nazariy-ilmiy tahlil etishning dolzarbligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ularni turoperatorlar ommaviy iste’molchilarga emas, balki, shaxsiy buyurtmalar bo‘yicha (ovchilik, gastronomiya, ekologiya, folklor) tavsiya qilishadi.

### **1.3. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari**

Mamlakatimizda keyingi yillarda ona-tabiatni asrash, biologik turlarni saqlab qolish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekistonda 2001–2005 yillarda G‘arbiy Tyan-Shanning biologik turlarini asrash bo‘yicha xalqaro bank – GEF loyihalari va xalqaro loyiha – EuropeAid loyihasi amalda bo‘ldi. Bu loyihalar atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy aholini turizmga jalb qilish bilan bevosita bog‘langan.

Iqtisodiy jihatdan murakkab davrda aholi ko‘proq yagona moddiy manba sifatida natural xo‘jalikka suyanadi va shuning uchun ham chorvachilik va dehqonchilikni jadal rivojlantiradi. Tabiiyki, bunday sharoitda shudgor va yaylov uchun davlat muhofazasidagi bog‘lar va qo‘riqxonalardan ham foydalaniladi. Natijada insonning hali o‘zlashtirilmagan hududlarga faol “hujumi” yuz beradi, oqibatda ekologiya buziladi va ba’zi turlar yo‘qolib ketadi. O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmonlar to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasiga ko‘ra, o‘rmon massivlari asosan ekologik (suvni asrash, himoya, sanitariya-gigiyena, sog‘lomlashtirish, rekreatsion), estetik va foydalanish cheklab qo‘yilgan boshqa vazifalarini o‘taydi<sup>18</sup>.

Mahalliy jamoaga muqobil faoliyat sifatida turizm bilan, ya’ni, mahalliy flora va faunaga, landshaftga, xalq tarixi va madaniyatiga qiziqqan xorijiy va mahalliy sayyo Hatchilarni qabul qilish va ularga xizmat ko‘rsatish taklif etadi. Bu soha mavsumiy bo‘lsa ham, aniq reja asosida, uddaburonlik bilan olib borilsa, mavsumni cho‘zish, daromadni esa yil mobaynida bir xil olish mumkin. Aholi turarjoy, ovqatlantirish, transport, odatlar va hunarlarini namoyish qilish, gidlik, himoya va xavfsizlik xizmatlarini ko‘rsatadi.

Bu sohani rivojlantirish milliy an'analar va xalqimizga xos bo‘lgan mentalitetga asoslangan mahalliy hunarmandchilikni rag‘batlantiradi: aholi imkoniyati darajasida hunarmandchilik kasblarini, ovchilikni tiklaydi. Bu unga katta investitsiya talab qilmaydigan qo‘srimcha daromad manbai bo‘ladi. Bundan tashqari, mahalliy aholi boshqa hududlardan keltirib emas, balki, o‘zi yetishtirgan sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan turistlarni ta’minlaydi, ya’ni, yordamchi xo‘jalik (aholi uy-joy tomorqasidagi bo‘s sh yerkarta ekilgan sabzavot mahsulotlari) ham daromad keltira boshlaydi.

Natijada aholining o‘zi tabiatni faol qo‘riqlay boshlaydi. Chunki, atrof-muhit buzilsa, chet ellik turistlar kelmay qo‘yadi, bu esa mahalliy aholining daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli manfaatdor tomonlar o‘z mablag‘larining bir qismini tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga hamda madaniyat

---

<sup>18</sup>O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmonlar to‘g‘risi”dagi Qonuni, -T.: 1999 y 15 aprel.

va san'at yodgorliklarini ta'mirlashga ajratishga majbur bo'ladi.

Muhimi, bu sohani rivojlantirish uchun kommunikatsiyalarni, yangi texnologiyalarni rag'batlantiradi, yo'llar qurilishi, aloqa liniyalarini o'tkazilishi, tibbiyot, ichimlik suvi, energiya va hokazolar bilan bog'liq faoliyat turlari paydo bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida shubhasiz, turizmni rivojlantirish va rekratsion faoliyatni jonlantirishda hukumat yetakchi islohotchi bo'lishi lozim. Chunki, tabiatdan betartib, aniq rejasiz foydalanish mamlakat uchun katta zararlarni olib kelishi mumkin. Shuning uchun respublikamizda bu sohaga alohida yondoshuv bo'lib, muhim qarorlar qabul qilinmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 10 martdag'i "Tabiiy boyliklarni saqlash hamda Chimyon-Chorvoq hududini o'zlashtirishga kompleks va izchil yondashishni ta'minlash to'g'risida"gi 83-raqamli qarorida qayd etilishicha, bu hudud o'z tabiiy-iqlimi sharoitlari bo'yicha kurort va rekreatsion xarakterdag'i alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududga kiradi. Shu munosabat bilan tabiatga sezilarli zarar keltiradigan korxonalar tomonidan bo'ladigan ekologik tahdidni kamaytirish hamda mahalliy turizmning salohiyatini aniqlash maqsadida bu hududda infratuzilmani restrukturizatsiyalash ishlari o'tkazildi. Tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa korxonalar qurish taqiqlandi.

Hozirgi vaqtda ekoturistik mahsulotga xorijiy va mahalliy turistlar orasida ehtiyoj katta. Mutaxassislar fikriga ko'ra, Markaziy Osiyo tabiat qo'yniga qilinadigan sayyohatchilar uchun o'ziga xos "Makka" bo'lib qolishi mumkin. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2006 yil 17 aprelda "O'zbekiston Respublikasi 2006–2010 yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-325-sonli. qarorni amalga tambiq qilish hamda ekoturizmni rivojlantirish maqsadida Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish konsepsiysi va uning yaqin kelajakdagi istiqbollari"ni ishlab chiqdi. Vatanimizda ekoturizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun

zarur bo‘lgan shart-sharoitlar, tashkiliy-huquqiy masalalar ko‘zda tutilgan bu konsepsiya, amalga oshirilgan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi ekologik turizmi taraqqiy etgan mamlakatlar qatorida o‘rin egallashida muhim ahamiyatga ega.

Shuni ham eslatib o‘tish kerakki, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlardagi ekologik marshrutlarni tuzishda va amalga oshirishdan oldin turistik tashkilotlar shu hududlarning ma’muriyati, O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat Qo‘mitasi bilan kelishishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo‘mitasi yoki “O‘zstandart” agentligidan sertifikat olishi lozim. Bunday ruhsatnomani olish uchun ular quyidagi hujjatlarni taqdim qilishlari lozim:

- marshrut sxemasi (unda tegishli joy xaritasida marshrut yo‘li tasviri bo‘lishi, dam olish uchun to‘xtash joylari, ovqat tayyorlash, tunash (qo‘nish) joylari ko‘rsatilishi kerak);
- marshrutning bayoni (masofasi, to‘xtash joylari soni, o‘zini tutish qoidalari, mavsumiylik, o‘tish vaqt, marshrutdagi odamlar soni berilishi).

Ekologik so‘qmoqlar, odatda, milliy tabiiy bog‘lar va davlat buyurtmaxonalari bufer, rekreatsion hududlarda tashkil qilinadi. Alovida hollardagina bu so‘qmoqlar qo‘riqxonalar orqali o‘tishi mumkin (lekin bunda atrof-muhitga iloji boricha zarar yetmasligi, guruh maxsus gid alovida qo‘riqlanadigan hudud mutaxassis yetakchiligidagi yurishi lozim).

Turmarshrutni tuzishdagi rasmiyatçilik qoidalari tashkilotchilardan umumiy tabiiy xususiyatlardan tashqari alovida qiziqarli obyektlar (g‘orlar, qoyalar, irmoqlar, ko‘llar), flora (dorivor va noyob o‘tlar, zaharli o‘simpliklar, lishayniklar olami) va fauna (qizil kitobiga kiritilgan hayvonlar, hasharotlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham to‘plashni talab qiladi. Shuni aytish kerakki, ekologik yo‘lni tanlashda faqat landshaftning tipigina emas, balki, bo‘lajak rekreatsion ekologik yo‘nalishda tashrif buyurishi mumkin bo‘lgan turistlar sig‘imini ham hisobga olish lozim. Marshrut shunday rejalashtirilishi kerakki, o‘simplik va hayvonot dunyosining noyob turlari, ayniqsa, davlat muhofazasidagi turlari yashaydigan joylar chetlab o‘tilishi zarur. Yo‘lga chiqishdan oldin turistlar

xavfsizlik texnikasi, shu hududlarda o‘zini tutish qoidalari hamda qoida buzilganligi uchun ma’muriy-jinoiy javobgarlik to‘g‘risida yo‘l-yo‘riq olganlari haqida maxsus daftarga imzo chekishlari lozim. Odatda, ekologik marshrut va uning vazifalarini bir necha guruhlarga bo‘lishadi.

Shunga ko‘ra, ekologik marshrurlarning quyidagi yo‘nalishlariga amal qiladi:

- chiziqli (to‘g‘ri);
- radial;
- halqasimon;
- yarim halqasimon va hokazo

Vazifasiga ko‘ra, ular quyidagi xillarga bo‘linadi:

- bilim olish – sayr;
- bilim olish – turistik;
- o‘quv – ekskursion;
- sport;
- rekriatsion va hokazo

Bilim olish-sayr marshrurlarini tuzishda (ularni ba’zan “dam olish kuni so‘qmoqlari” deb atashadi) quyidagi talablarni hisobga olish lozim:

- masofa – 4 km. dan 8 km. gacha;
- iloji boricha qo‘riqlanadigan hududga kirish joyidan boshlanishi;
- turistlarni bir guruhga yig‘ib, gid yetakchiligidagi 3–4 soat mobaynida tabiat, tarix va madaniyat yodgorliklari bilan tanishib, yo‘l-yo‘lakay ma’ruza tinglab, shoshmasdan yurilishi lozim.

Bilim olish-turistik yo‘nalishning o‘ziga xos tomonlari:

- masofa bir necha o‘n kilometrdan bir necha yuz kilometrga yetishi mumkin;
- ular qo‘riqxonaga kirish joyidan boshlanadi;
- sayyohatning davomiyligi – 1–2 kundan bir necha haftagacha;
- turistlar guruhlarga birikib, marshrutni yetakchi va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar (oshpazlar, otboqarlar) hamrohligida bosib o‘tishadi;

- turistlarning ushbu so‘qmoqni mustaqil o‘tishlariga ham ruxsat beriladi. Lekin, agar yo‘l qo‘riqxona hududi orqali o‘tadigan bo‘lsa, ularga ushbu hudud ma’muriyati xodimi hamrohlik qilishi lozim;
- mustaqil sayyohat qilishdan oldin turistlar tegishli materiallar bilan ta’minlanishi va xavfsizlik texnikasi hamda o‘zini tutish qoidalari bilan tanishtirilishi zarur;
- turistlar qo‘riqlanadigan hududga kirish uchun ham to‘langanligi ko‘rsatilgan kvitansiya va tegishli ruxsatnomaga ega bo‘lishlari kerak.

O‘quv va malaka oshirish uchun tashkillashtiriladigan ekoturistik marshrutmorning xususiyatlarini mutaxassislar odatda, quyidagicha tushunishadi:

- ushbu yo‘nalishlar faqat ekologik bilim olish uchun ochiladi va, avvolo, maktab o‘quvchilari, litseylar, kollejlar, oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallanadi;
- mavzu barcha ishtirokchilar uchun tushinarli bo‘lishi kerak;
- odatda, masofa 2 km. dan oshmaydi (ko‘pi bilan 3 soatlik o‘quv ekskursiyasi uchun mo‘ljallanadi);
- iloji boricha alohida qo‘riqxonaga kirishdan boshlanadi;
- bolalar yetakchi-ekskursovod yoki o‘quv muassasi o‘qituvchisi boshchiligida yurishadi.

Sport va rekreatsion marshrutlar. Odatda, ushbu hududlarning xususiyatlari: tog‘ ko‘llari va daryolar (rafting, dayving, yelkanli qayiq sporti), tog‘ cho‘qqilari (alpinizm, qoyalarga chiqish), plyaj (rekreatsiya), tuzli g‘orlar (davolanish) mavjudligini hisobga olib tuziladi. Ularning shu maqsadlarga mo‘ljallangan jihozlari, tajribasi va ruxsatnomasi bo‘lgan maxsus firmalar tuzadi.

Bunday joylarda, odatda, piyoda yoki otda yuriladi, lekin istisno sifatida (ma’muriyatning ruxsati bilan) avtomobilda ham yurish mumkin.

Har qaysi marshrutda 3 ta asosiy omil mavjud:

- qiziqarlilik (jalb qiluvchanlik) – bu, tushuncha tabiatning manzaradorligi (go‘zalligi), o‘ziga xosligi va turli-tumanligi, yodgorliklarning noyobligi;

- hammabopligi–hududga turli yoshdagи guruhlarning tashrif buyurishi, ularning muayyan qoidalar va tadbirlarni bajarishlari imkonи borligi, hududning transport yo‘liga uzoq-yaqinligi;
- axborotdorlik–turistlarning geografiya, biologiya, geologiya, ekologiya bo‘yicha bilim olishlariga imkoniyat borligi, ya’ni, ekologik marshrutning boshqa marshrutlardan farqi mavjudligi.

Ikkinci tomondan, qo‘riqlanadigan hududga kirishdan oldin ma’muriyat turistlar uchun axborotlar ko‘rgazma taxtasi o‘rnatishi lozim. Bu unda olov yoqish, ov qilish ahlat tashlamaslik to‘g‘risida taqiqlovchi ma’lumotlar berilgan bo‘lishi kerak. Bu ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni yanada boyitish lozim. Ayniqsa, uning bezatilishiga ahamiyat berilishi kerak. Chunki, turistlarning marshrutga qiziqish-qiziqmasliklari shunga bog‘liq.

Bu ko‘rgazmali taxtada avvalo quyidagilar bo‘ladi:

- barcha marshrutlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (masofasi, murakkabligi, asosiy mo‘ljallar, yurish vaqtি, mavsumiyligi);
- bu yerdagi flora va fauna, shu jumladan, davlat muhofazasidagilarining ro‘yxati;
- yurish-turish (o‘zini tutish) qoidalari;
- obyektlarni borib ko‘rish narxi;
- gid (mutaxassis) ning hamrohligi shartligi yoki shart emasligi;
- eng qiziqarli joylarning surati yoki rasmi;
- qo‘riqlanadigan ushbu hududning tarixiy ma’lumoti, geografik chegaralari, muloqat telefonlari, xodimlarning ro‘yxati.

Axborot ko‘rgazmalarining materiallar va konstruksiyasi har xil bo‘lishi mumkin. Lekin ular ushbu uch talabga javob berishi lozim: oddiylik, qulaylik va uzoqqa yurishga chidashlilik.

Marshrtlarni ishlab chiqishda turoperatorlar tomonidan quyidagilarga alohida e’tibor qaratilishi lozimdir: yo‘llarda, dam olish manzillarida va ovqatlanish shaxobchalarida, albatta, axborot ko‘rsatkichlari qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Har bir marshrutning o‘z raqami, rangi yoki rasmi bo‘lishi maqsadga

muvofiq. Shunda turistlar daftarcha yordamida o‘zlarining turgan joylarini xatosiz aniqlay olishadi. Daftarchalarda diqqatga sazovor joylargacha bo‘lgan masofani va ularga yetib borish uchun qancha vaqt sarflanishi aniq ko‘rsatilishi kerak.

Bitiruv malakaviy ishlarimiz ko‘rsatishicha, ekoturistik mahsulot boshqa mahsulotlar, masalan, madaniy-bilim, sport mahsulotlaridan o‘ziga xos tomonlari bilan farq qiladi. Bu farqqa sabab shuki, turistlar, ba’zan kam tiklanadigan tabiiy resurslardan foydalanishadi.

Xo‘sh, turmahsulot qanday bo‘lishi kerak, u yoki bu unsurning ta’siri qanday belgilanishi lozim? Eng avvalo turistik mahsulot arzon, barcha mavsumlarga xos bo‘lmasligi, iste’moli cheklanmasligi kerak. Ammo ekosistemalar haqida gap ketganda buning iloji yo‘q va bunday bo‘lmasligi lozim. Sayyohatning faolligi yoki xavfsizligi bilan uyg‘unlashadigan ko‘p kunlik va uzoq masofali omil maqsadga muvofiq, lekin har doim ham shart emas. Biroq, xavfsizlik, saqlangan flora va faunaning mavjudligi, alohida qo‘riqlanadigan hududlarda turistlarning o‘zlarini tutish qoidalari qattiqligi muhim omillardir. Bu omillarni g‘arb turistlari hech qachon inkor qilishmaydi.

Ekoturizm resurslaridan foydalanishning boshqa shakllariga nisbatan tabiiy bog‘larni moliyalashning bevosa imkoniyatlari mavjud. Ko‘pchilik mamlakatlarda bu muammo hisoblanadi. Lekin turizmni to‘g‘ri rejalashtirish va boshqarish orqali uni bartaraf etish mumkin. Nepaldagi “Chitvan” va “Poxara” qo‘riqlanadigan tabiiy hududiga TASIS xalqaro loyihasi doirasida ekologik turizmni rivojlantirish va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini o‘tkazish maqsadida tashrif buyurgan Ugam-Chotqol davlat milliy tabiiy bog‘i vakillari qayd etishicha, birinchi hududda yashaydigan aholi shu yerdagi faoliyati (daromadi) hisobiga ichimlik suvi bilan ta’minlanadi va bolalarini boshlang‘ich mакtabda o‘qitish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hududni milliy armiya qo‘riqlaydi. Qo‘riqlash milliy bog‘ daromadi hisobidan amalga oshiriladi. Hududning o‘zida mehmonxonalar, restoranlar, kuzatish maydonchalar bor, ekoturistik yo‘nalishda tashrif buyurgan turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni 500 kishiga yetadi.

Turizmning boshqa shakllariga nisbatan ekoturizmning atrof-muhitga salbiy

ta'siri kamroq. Bundan tashqari, turistlar uchun qiziqarli bo'lgan, alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlar o'z budgetlarining bir qismini turizmdan tushadigan mablag'lar hisobiga qoplashlari mumkin. "Mahalliy hamjamiyat + tabiiy hudud + turizm" loyihasini qo'llab-quvvatlaydigan xomiylar va nodavlat tashkilotlari bundan qisman o'z-o'zini moliyalashga erishishlari va rag'batlantirishlari lozim. Albatta, ekologik yo'nalishdagi turistik mahsulotlarni tayyorlashda mahalliy hamjamiyatlarda ham, turoperatorlardan ham turli darajadagi qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Shu munosabat bilan har xil xususiyatlarga ega bo'lgan va turli tazyiqlarga uchraydigan alohida qo'riqlanuvchi tabiiy hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishning odatda, ikki modelini xalqaro ekspertlar taklif qiladi. Bular: "A" modeli-nazorat qilinmaydigan tabiat turizmi, "V" modeli-kichik ko'lamli ekoturizm.

"A" tipidagi rivojlanish modelida "V" tipidagi modeldagiga nisbatan ko'proq tabiiy turli-tumanlik va hammaboplilik ko'zda tutiladi. Bundan tashqari, birinchi model turistik marshrutlarni tashkil qiluvchilar uchun ko'proq daromad keltiradi. Lekin bunda shuni hisobga olish kerakki, bu amalda nazorat qilinmaydigan turizm joyning ekologiyasiga ancha salbiy ta'sir ko'rsatadi, mahalliy aholining turmush tarzi va urf-odatlarini o'zgartiradi. "V" tipidagi model biologik turlarning saqlanishi va ularga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi tufayli bu model afzalroq hisoblanadi. Lekin u ham turoperatorlar va mahalliy aholi uchun uncha katta daromad keltirmaydi. Fikrimizcha, iqtisodiy rivojlanmagan mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston uchun ham bu model afzalroq.

## **II -BOB. O'ZBYEKISTONNING TURIZM TARAQQIYOT KONSYEPSIYASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI**

### **2.1. O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish strategiyasi**

#### **va uning asosiy yo'nalishlari**

Respublikamiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan qo'shni mamlakatlardan tubdan farq qiladi. O'zbekistonning geografik o'rni nihoyatda qulay, ajoyib tabiiy - iqlim sharoitiga egaligi insoniyat madaniy taraqqiyotida ham katta o'rin tutadi. O'zbekiston nodir tarixiy arxitektura yodgorliklariga, shirin-shakar mevalar, xilma-xil taomlar, ajoyib milliy an'ana, urfodatga ega, halqi esa mehmondo'st. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini tortadi va turistik sayohatlarga chiqishga undaydi.

Rivojlangan mamlaktlarda ishsizlik darajasi keskin ortib, ish o'rirlari qisqartirilmoqda. Global inqirozining respublikamiz iqtisodiyotiga ta'sirini kamaytirish maqsadida hukumatimiz tomonidan xizmat ko'rsatish sohasiga alohida e'tibor qaratilmoqda va yangi ish o'rirlari yaratilmoqda. 2017 yil mobaynida yurtimizda 611 mingga yaqin, jumladan, kichik biznes sohasida 374 mingta, xizmat ko'rsatish va servis sohasida qarib 220 mingta yangi ish o'rni yaratildi. Jumladan, xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy qismi bo'lgan turizm tarmog'ini rivojlantirishga e'tibor ko'payib bormoqda.

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish har jihatdan muvofiqlashtirilgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu ishga aloqador barcha manfaatli tamonlarni jalg qilish lozim. Shundangina ekoturizmni rivojlantirish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan xatoliklarning oldi olinadi va salbiy oqibatlarga yo'l qo'yilmaydi. Ayniqsa, asosiy faoliyati turizm bo'lgan, mahalliy uyushmaga alohida e'tibor berish lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, mahalliy uyushmaga asoslangan ekoturizmni yo'lga qo'yish hali O'zbekiston sharoitida to'liq sinalmagan, mahalliy jamoa va tashkilotlar jalg qilingan yangi tuzim hisoblanadi. Hozirga mahalliy uyushmani qo'llab-quvvatlash uchun maxsus kredit sxemalari ham mavjud emas.

Turarjoylarni mablag‘ bilan ta’minlash mahalliy hokimiyat organlari orqali amalga oshiriladi. Chotqol vohasida va ekoturistik rayonlarda investitsiyalar borasida muayyan qiyinchiliklarga duch kelinmoqda, chunki, moliyaviy foyda istiqboldagina kela boshlashi mumkin.

Mahalliy uyushmani rivojlantirish davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi zarur. Bu masala, ayniqsa, yerdan foydalanish, soliqqa tortish, xo‘jalik faoliyatlarini litsenziyalash va ro‘yxatga olish, chegara muammolarini hal qilishga tegishli. Amaldagi qonunchilikdan kelib chiqqan holda ekoturizmni rivojlantirishning bir necha ko‘rinishni taklif qilish mumkin:

- ekologik turizmni rivojlantirish va qo‘lab-quvatlash markazini tuzish (alohida qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar, manzillar, ekoturistik rayonlar turizmi to‘g‘risida qonunlar yaratish va h.k);
- ekologik turizm infratuzilmasini yaratish (erkin turistik hududlar, turistik obyektlarni barpo qilishga jalb etilayotgan chet el investitsiyalarini kafolatlash, turizmda shaxsiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvatlash to‘g‘risidagi qonunlarni yaratish va h.k).

O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Jozibali tog‘lar va daryolar, go‘zal manzarali landshaftlar, an’anaviy turush tarzi, tarixiy-diniy markazlar ekologik turizm uchun eng zarur omillardir. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish respublikadagi barqaror turizm taraqqiyoti strategiyasining uzviy qismiga aylanishi lozim. Shuni ta’kidlash joizki, sarguzashtli joylar hozircha ekoturistlar uchun unchalik jozibali emas. Shuning uchun asosiy e’tiborni turizmning tabiiy go‘zallikdan baxra olish imkonini beruvchi shakliga qaratish lozim.

Ehtimol, ma’lum muddatgacha xalqaro (g‘arb) turizm O‘zbekiston ekoturizmi uchun jozibasiz bo‘lishi mumkin. Lekin yaqin kelajakda ekoturizm uchun salohiyatli uchta hudud (Chimyon, Xumson va Burchmulla)ning katta sanoat shaharlariga (Toshkent viloyati) yaqinligi ularning bu boradagi imkoniyatini oshiradi. Agar chegara muammosi, ya’ni, chegarani kesib o‘tish masalasi soddalashtirilsa, O‘zbekistonga yaqin joylashgan respublikalar –Qozog‘iston,

Qirg‘iziston, Rossiya va Ukrainianadan bu hududlarga turistlar oqimi kuchayadi va O‘zbekiston barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tadi. Biroq, bu hududlarning shahar markazlariga yaqinligi turistlar tabiatdan noto‘g‘ri foydalanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ba’zi joylarga borish qat’iy nazorat ostiga olinishi va hatto, taqiqlab qo‘yilishi lozim. Hududlardagi ekoturizmning rivojlanish xolatiga ta’sir ko‘rsatadigan eng muhim omillarni ana shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda ko‘rib chiqish zorur.

Transport xizmatlarini yaxshilash va chegara hududlari borasida quydagi tadbirlarni taklif qilish mumkin:

1. Kutib olish va tashishga doir xizmatlar. Jamoat transportida keluvchi turistlar uchun kutib olish, tashishga doir xizmatlar Chimyon-Beldorsoy, Xumson-Oqtosh va Burchmulla-Nanay hududlari yo‘nalishi uchun Toshkent va G‘azalkentda tashkil qilinishi mumkin. Tashish xizmatlarini mahalliy uyushma guruhlari yoki shaxsiy taksi haydovchilari ko‘rsatadi.

2. Chegarani kesib o‘tish. G‘arbiy Tyan-Shan hududiga tashrif buyuradigan turistlarning chegarani kesib o‘tishi bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun quyidagilarni bajarish juda muhim: Transchegara biosfera rezervatini yaratish to‘g‘risidagi bitimga tegishli ishlarni davom ettirish, O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston orasida transchegara turizmni rivojlantirishga imkon beradigan tadbirlar, ya’ni, chegarani kesib o‘tish uchun eski nuqtalarni tiklash yoki yangilarini ochish tadbirlarini bajarish lozim.

3. Kirish cheklangan hududlarni kesib o‘tish. Turistlarning harakatlanishi tartibini huquqi tartibot va xavfsizlik organlari bilan kelishib olish, ular bo‘lishi mumkin bo‘lgan joylar va taqiqlangan hududlar chegarasini belgilash zurur.

Manfaatdor turistik firmalar va mahalliy shaxslar bilan uzviy hamkorlikda hududdagi qiziqarli joylar (madaniyat obyektlari, tabiat, landshaft) ni hisobga olgan holda marshrutlar va turlarni aniqlash va harakat sxemasini ishlab chiqish lozim. Mahaliy uyushma guruhlari bilan uzviy hamkorlikda hozirgacha bir nechta marshrutlar aniqlangan.

Mavjud marshrutlarni takomillashtirish va yangilarini yaratish uchun

quyidagi tadbirlar taklif qilinadi:

1. Turistik yo‘nalishni ishlab chiqish. Ugam–Chotqol tabiiy bog‘i va Chotqol vohasi hududida tarixiy so‘qmoqlar bo‘yicha hamda turistlar va turoperatorlarning qiziqishlarini hisobga olib, mavjud va bo‘lajak marshrutlarni aniqlash. Marshrutlarning bayonini va zarur bo‘lsa, belgilarni (masalan, ko‘priklar, ko‘rsatkich shitlari, so‘qmoqlar ochish va mavjudlarini tiklash) qog‘ozga tushirish. Marshrutlarning boshlanishi mahalliy uyushmadagi uchta qishloq, Ugam-Chotqol tabiiy bog‘idagi qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar, marshrutlar esa yarim kunlik, bir kunlik va bir necha kunlik bo‘lishi mumkin. Ularning turlari–piyoda sayohatlar, ot bilan qilinadigan turlar. Ekoturizmning turli qismlarini bir-biriga bog‘lovchi davlatlararo marshrutlar ham ishlab chiqilishi mumkin.

Bular O‘zbekiston doirasida:

- O‘zbekiston-Qirg‘iziston;
- O‘zbekiston- Qozog‘iston;
- Ugam-Chotqol tabiiy bog‘i, Nurota-Qizilqum biorezervati;
- Toshkent viloyati–O‘zbekistoning boshqa hududlari.

Qirg‘iziston doirasida:

- Talos (Qora-Bura) –Chotqol vohasi;
- Chotqol vohasi–Sari Chelak;
- Jalolobod viloyati doirasidagi diniy turizm (muqqadas joy bilan bog‘lovchi marshrutlar).

Uch respublika orasidagi transchegara marshrutlariga muqobil marshrut aniqlanishi lozim.

Bu muammolarning hal etilishi chegarani kesib o‘tish bilan bog‘liq muammolar qanday hal qilinishiga bog‘liq.

2. Turlarni ishlab chiqish va harakatlanish. Qirg‘iziston va Qozog‘iston mahalliy uyushma tarmoqlari va turoperatorlar bilan hamkorlikda tanlab olingan marshrutlarga asoslangan turlarni o‘z ichiga olgan marshrutlar paketlarini ishlab chiqish, o‘sha tarmoqlar orqali maqolalar e’lon qilish va reklamalar berish.

Turistik xizmat ko‘rsatishga doir professional sektor turizmni rivojlantirish

borasidagi dastlabki qadam bo‘ladi. Hozirgi vaqtda ekoturizmni rivojlantirish uchun ajratib olingan yerlar doirasida professionallik ko‘nikmalari, ya’ni, turistlarni joylashtirish, gidlarni tayyorlash, otta sayr qildirish xizmatlarini tashkil qilish, turistlarni ovqatlantirish, ularga transport xizmati ko‘rsatishga doir ko‘nikmalar juda past darajada.

Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarni yaxshilab tanlash, ularni o‘qitib-o‘rgatishni tashkil qilish juda muhim. Lekin, bu borada hozircha sifat standarti va o‘qitish hajmi jihatdan turistik bozor sig‘dira oladigan ko‘lamda ishlar amalga oshirilgani yo‘q. Shuning uchun keyinchalik afsuslanib qolmaslik va investitsiyani noto‘g‘ri yo‘naltirmaslik maqsadida, mahalliy uyushmani rivojlantirish dasturi marketing strategiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi, ya’ni, xizmatlar provayderlar sektorini jalb qilish zarur.

Turistlarni joylashtirish bo‘yicha ba’zi xizmatlar Ugam-Chotqol tabiiy bog‘ida amalga oshirilmoqda. Joylashtirishga doir ba’zi xizmat turlarini rivojlantirish va professionallik darajasiga ko‘tarish zaruriyati mavjud (masalan, qishloqlarda mehmonxona, uylarda xizmat turlarini ko‘paytirish, turistlarni talabiga ko‘ra, tabiat quchog‘ida mavsumiy joylashtirish va h.k).

Joylashtirish xizmatlarini takomillashtirish borasida quyidagi tadbirlar taklif qilinadi:

1. Xususiy mehmonxona-uylarni ko‘paytirish. Joylarda mehmonxonalar yo‘qligini hisobga olib, xususiy mehmonxona-uylar ularga muqobil bo‘lishi, buning uchun esa ular turistlarga qulay va real shart-sharoitlar yaratishi lozim. Xususiy mehmonxona-uylar kichik investitsiyalar qo‘yish yo‘li bilan yaratilishi hamda mahalliy oilalar va uyushmalar uchun iqtisodiy ko‘mak bo‘lishi mumkin.

Eng muhimi, xususiy mehmonxona-uylar bu yerda yashagan turistlar mahalliy aholi turmush tarzi va madaniyati bilan bevosita va shaxsan tanishishlariga imkon tug‘diradi. Turistlar tashrif buyuradigan har bir qishloqda 1–3 ta xususiy mehmonxona-uy tashkil qilinsa va bu yangi turistik “mahsulot” - ning sifati a’lo darajada, foyda keltiradigan va barqaror bo‘ladigan qilib tanlansa, maqsadga muvofiq bo‘lardi. Turistlar joylashtiriladigan bunday manzillar hududda

turistlarni joylashtirish sektorining keyingi rivojlanishi uchun namuna bo‘lishi lozim.

Quyidagi omillar xususiy mehmonxona-uylarni tanlash uchun muhim mezon bo‘lishi mumkin:

- Atrof-muhit havosi toza, tinch va osoyishta bo‘lishi;
- xonalar ozoda, gigenik jihatdan qulay va saranjom-sarishta bo‘lishi;
- xonadon egalari turistlar bilan mehmonnavozlik munosabatida bo‘lishlari;
- xonadon egalari “nonushtani joylashtirish” biznesini yo‘lga qo‘yishlari;
- bozor salohiyatining ochiqligi;
- xizmatlar provayderi raqobat va sifatga bardosh berish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratishga qodir bo‘lishi lozim.

2. Turistlarni tabiat quchog‘ida joylashtirish. Toki, ekoturizm rivojlanishning boshlang‘ich bosqichini boshidan kechirar ekan, turistlarni tabiat quchog‘ida joylashtirish masalasi hal qilinishi lozim. Buning uchun har bir vaziyatdagi ahvoldan kelib chiqqan holda, masalan, joylardagi cho‘ponlar yoki qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar boshqaruvchilari bilan kelishib ish yuritish lozim. Shuning uchun tavsiya qilinayotgan marshrutdagi mavjud yarim muvaqqat o‘tovli lagerlar va boshqa joylashtirish shakllari (masalan, lagerlarning uylari), shuningdek, hatto, xavfsiz g‘orlar ro‘yxatini tuzish juda muhim. Turistlarni joylashtirish bilan sho‘g‘illanish uchun tanlab olingan xizmatlar provayderlari birlashtirilishi va mahalliy uyushma guruhi bilan, o‘tovlarning provayderlari esa Shepherd’s Life konsensiyasi bilan bog‘lanishi lozim.

Ugam–Chotqol tabiiy bog‘ida turistlarni ovqat bilan ta’minlaydigan qayd qilingan va rasmiy faoliyat yuritadigan obyektlarning ulushi juda kam. Rasmiy obyektlarning ko‘pchiligi katta yo‘l yoqalarida va xususiy turar -joylar sektorida joylashgan bo‘lib, deyarli hammasi mavsumiy (bahor-yoz-erta kuz) ishlaydi. Ular asosan meva va sabzavotlar, sut mahsulotlari, issiq ovqat (go‘shtli ovqatlar, suyuq taomlar), yopilgan non, patir, mahalliy mahsulotlardan tayyorlangan chanqov bosar (kampot, sharbat) bilan savdo qiladi. Bunday obyektlarning xizmatlaridan avtotransport haydovchilari, turistlar, dala havlilar egalari foydalanishadi.

Mahsulotlar va ovqatlarning sifatini hech qanday rasmiy tashkilot nazorat qilmaydi.

Ekoturistik hududlarda turistlarni ovqatlantirish bo‘yicha quyidagilarni tavsiya qilamiz:

1. Kafe – restoran. Turizmni rivojlantirish mo‘ljallanganga har bir qishloqda turistlarning katta (15–20 kishilik) guruhiga xizmat ko‘rsatadigan xodimlari maxsus o‘qib-o‘rgatilgan hech bo‘lmasa 1 ta ovqatlanish nuqtasi bo‘lishi lozim. Bu nuqta kafe yoki restoran yoki turistlarga xizmat ko‘rsatish mas’uliyatini zimmasiga olgan mahalliy provayderlar ishlaydigan “qo‘lbola restoran” bo‘lishi mumkin.

2. Trening. Har xil toifadagi turistlarga xizmat ko‘rsatish uchun ularning o‘ziga xos istak-xohishlarini (masalan, vegetarian taom yeyishlarini, cho‘chqa go‘shti yeyish-emasliklarini va h.k) bilish lozim. Nazarimizda, ovqatlantirish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadigan shaxslar (mahalliy “restoranlar” sifatida xizmat ko‘rsatadigan xususiy mehmonxona-uylar egalari ham) KATOS taklif qiladigan “Xalqaro oshxona” trekingidan o‘tishi maqsadga muvofiq. Bunday o‘qitib-o‘rganish dasturining asosini an’anaviy mahalliy taomlar hamda chet el taomlarini tayyorlash sirlari bilan tanishtirish tashkil qiladi.

3. Mahalliy mahsulotlar. Mahalliy iqtisodiyotga ko‘maklashish hamda yangi va turistlarni ekologik sof taomlar bilan ta’minalash maqsadida provayderlar mahalliy taomlar turlari (masalan, sut mahsulotlari, sariyog‘, yangi yopilgan non, go‘sht va h.k) dan iloji boricha ko‘proq foydalanishlari lozim. Shu jihatdan ovqatlantirish provayderlar va taom tayyorlovchilar o‘rtasidagi hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘yish lozim.

Ma’lumki, taklif qilinayotgan ko‘pchillik piyoda va otli marshrutlar kuzatuvchilar hamroxligini talab qiladi. Hozircha Ugam–Chotqol tabiiy bog‘ida professional gidlar yo‘q. Chimyon–Beldorsoy hududida chet el turistlariga xizmat ko‘rsatadigan sanoqli shaxslar bor. Gidlar uchun treningdan tashqari, qo‘riqlanadigan hududlarning xodimlarini ham o‘qitib-o‘rgatish zarur. Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyoda ixtisoslashtirilgan trening va sertifikatsiya yo‘q.

Gidlarni tayyorlashda asosiy e’tiborni mahalliy maktablarning

o‘qituvchilariga, xususan, geografiya, tarix, biologiya, jismoniy tarbiya bo‘yicha dars beruvchi o‘qituvchilarga qaratish zarur. Butun Ugam–Chotqol tabiiy bog‘i hududida bunday nomzodlar soni kamida 30 nafarga yetadi. Ularni marshrurlarning xaritalari bilan ta’minalash, yo‘lning o‘ziga xos tomonlarini (piyoda yoki otliq, velosopeda yoki qayiqda ekanligini) hisobga olgan holda shu marshrulardan o‘tkazib ko‘rish lozim.

Ekoturizm yo‘nalishida tashrif buyurgan turistlar uchun gidlar va yo‘l boshlovchilarni tayyorlash yuzasidan quyidagi tadbirlarni taklif qilamiz.

1. Gidlarga nomzodlarni tanlash va trekking o‘tkazish. Hududning o‘ziga xos jihatlarini bilish, muomala, tajriba nuqtai nazaridan gidlikka nomzodlarni tanlash. Bunday tanlovlarga, ehtimol, turoperatorni ham jalb qilish kerakdir. Chunki, ular bo‘lajak gidlar bilan hamkorlik qilishadi. Uyushmadan mahalliy qishloq gidlari va qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar hodimlari uchun trekking materialini ishlab chiqish maqsadida mavjud tajribalardan foydalanish tavsiya qilinadi. Trekkinglarni tajribali turoperatorlar o‘tkazishi mumkin.

2. Hudud haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qo‘llanma. Hudud, xususan, Ugam–Chotqol tabiiy bog‘i hamda Bo‘stonliq tumani, Chotqol vohasining tarixi to‘g‘risidagi bilimlar bilan tanishish va ularni keng yoyish maqsadida gidlar va bu sohaga qiziqadigan mahalliy aholi uchun hudud haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan qo‘llanma nashr qilish lozim.

## **2.2. Qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarda ekoturizmni tashkil etishni takomillashtirish yo‘llari**

Ekoturizm mahalliy iqtisodiyotga daromad keltirishi va tabiatni muhofoza qilishga doir tadbirlarga ko‘maklashishi lozim. Biroq, agar ekoturizm yomon boshqarilsa, atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatishi hech gap emas. Shuning uchun turistlarning ehtiyojlarini qondira oladigan va tabiatni muhofaza qilishga faol moliyaviy ulush qo‘shadigan barqaror ekoturizm shaklini rivojlantirish lozim.

Ugam–Chotqol tabiiy bog‘iga ekoturistlarni ko‘proq jalb qilish uchun tabiatni muhofaza qilishning muayyan bir maqomi belgilab qo‘yilgan tabiat manzillarining asosiy sharti bo‘lib qolishi zarur. Shu munosabat bilan ayni hudud

uchun qo‘riqlanadigan hududlarning ko‘lamini kengaytirish va sifatini oshirish juda muhim. G‘arbiy Tyan-Shanda rejalashtirilayotgan Transchegaraviy biosfera rezervati turizm bozorida ushbu hududni reklama qilishga o‘z hissasini qo‘shadi.

Qo‘riqlanadigan hududda ekoturizmni rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Qo‘riqlanadigan tabiiy hudidlarda barqaror turizmni shakllantirish uchun standartlar kiritish. Yevropark, MSOP va WWF pankparklari tayyorlagan xalqaro standartlarga asoslanib, ZTSHSB Markaziy Osiyoning qo‘riqlanadigan hududlari doirasida turizmni rivojlantirish uchun standartlar va mezonlarni ishlab chiqish lozim. Standartlar qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarning bashqaruvchilari uchun tavsiyanomalarini ham o‘z ichiga olishi lozim.

2. Hududni guruhlashtirish va tashrif buyuruvchilarni boshqarish. Qo‘riqlanadigan tabiiy manzillarni rejalashtirish, demarkatsiyalash va guruhlashtirishda turizmni rivojlantirish ehtiyojlarini hisobga olish va bunda tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga halaqit bermaslik lozim. Qo‘riqlanadigan tabiiy hudularda quyidagilar amalga oshirilishi kerak:

- turizmni rivojlantirish ehtiyojlarini baholash;
- turistlarni qabul qilish salohiyatini baholash;
- turizmni rivojlantirish ehtiyojlarini rivojlantirish va turistlarni qabul qilish salohiyatini hisobga olgan holda taklif qilinadigan guruhlashtirish loyihasi;
- guruhlashtirish sistemasi to‘g‘risidagi bitim.

Mohiyatan Ugam–Chotqol tabiiy bog‘i va Besh-orol qo‘riqxonasi faqat bir maqsadni, ya’ni, biologik xilma - xillikni saqlash maqsadini ko‘zda tutgan hudud hisoblanadi. Biroq, bu joy inson tabiatga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadigan joy hamdir. Hududning ba’zi joylari borki, ularga kirishni butunlay cheklab qo‘yish yoki muayyan ruxsatnomali tartibni o‘rnatish lozim. Ular qo‘riqxona markaziga olib boruvchi, otta yoki piyoda sayr qilish uchun mo‘ljallangan yo‘laklar, havoskorlar va professionallar uchun bilimlarni oshirish maqsadi ko‘zlangan botanik, ornitologik, entomologik turlar bo‘lishi, chet mamlakatlarning talabgor guruhlari va yakka tadqiqotchilari qo‘riqxonaga ilmiy

tadqiqotlar va o‘rganish uchun tashrif buyurishlari mumkin.

3. Qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarga tashrif buyuruvchilarning kirishi va haq to‘lash tizimi. O‘zbekiston va Qirg‘izistondagi qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarga kirish uchun haq to‘lash tizimi turoperatorlar va yakka tashrif buyuruvchilar uchun hozircha aniq emas. Milliy darajada haq to‘lash tizimi o‘yg‘unlashtirilishi va aniqlashtirilishi lozim. G‘arbiy Tyan-Shandagi bo‘lg‘usi Transchegaraviy biosfera rezervati doirasida joylashgan har bir qo‘riqlanadigan tabiiy hudud bo‘yicha tashrif buyuruvchilar uchun axborot lifleti ishlab chiqishni tavsiya qilish lozim. Unda haq to‘lash tizimi bayon qilinadi. Bundan tashqari, kirish haqini qabul qiladigan qo‘riqchilar tashrif buyuruvchilarni qabul qilish tartibiga o‘rgatilishi zarur. Chotqol vohasi aholisi uchun ham kirish haqi belgilashni ko‘rib chiqish kerak. Mahalliy aholi uchun kirish haqini minimal darajada belgilagan ma’qul. Loyihaning O‘zbekiston qismini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Chotqol qo‘riqxonasiga kirish haqi mahalliy aholi uchun bir xil ta’rif (arzonlashtirilgan), xorijliklar uchun ikkinchi ta’rifga asoslanishi maqsadga muvofiq.

Turistlarni qabul qilish va menejment O‘zbekistondagi qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar xodimlari uchun nisbatan yangi vazifa. Demak shu hududlar menejerlari hamda boshqa xodimlari uchun trening mashg‘ulotlarini doimiy ravishda olib borish va ularning salohiyatini oshirish juda muhim.

Xodimlarning xizmat ko‘rsatish saviyasini oshirish borasida quyidagilarni amalga oshirish kerak:

– qo‘riqlanadigan hududlarning menejerlari uchun trening mashg‘ulotlari, qo‘llanma va seminarlar tashkil qilish, ZTShSB doirasida qo‘riqlanadigan hududlardagi turizm bo‘yicha xodimlarga qo‘llanma ishlab chiqish lozim. Barqaror turizmni rivojlantirishga doir taklif qilingan mezonlar va standartlarga hamda Yevropadagi mavjud qo‘llanmalarga asoslanib, qo‘llanmada quyidagi masalalar yoritilishi maqsadga muvofiq:

- guruhlarga ajratish;
- turistlarni qabul qilish salohiyatini baholash;

- tashrif buyuruvchilarni boshqarish;
- kirish haqi tizimi;
- turistlarga yo‘l boshlash (hamrohlik qilish);
- marshrut bo‘yicha ko‘rsatgichlar o‘rnatish;
- mahalliy uyushmalar bilan hamkorlik qilish;
- xorijiy turistlar uchun tarjimani yo‘lga qo‘yilgan.

Hozirgi vaqtida Ugam-Chotqol tabiiy bog‘iga va Chotqol qo‘riqxonasiga kirish unchalik qiyin emas. Shuning uchun bu borada ham moliyalashni yaxshilash, ham tashkiliy muammolarni hal qilish maqsadida tegishli tadbirlar o‘tkazish talab qilinadi.

Chotqol qo‘riqxonasiga qayerdan kirish mumkinligini rasman aniqlab olish lozim. Kirish chiptalari uchun yagona va standart narxni belgilab qo‘yish kerak. Kelgusida, tashrif buyuruvchilar soni ortgan sari, tashrif buyuruvchilarning ma’muriy bino markazidan qo‘riqxona ichkarisiga borishlari uchun kichikroq avtobus yoki mashina sotib olishga investitsiya jalb qilish imkoniyatini ko‘rib chiqish lozim.

Bir kunlik turlar uchun ikkala qo‘riqxona ma’muriy binosidan toki qo‘riqxona ichkarisiga olib boradigan va aniq belgilab qo‘yilgan so‘qmoqlar tizimini ishlab chiqish kerak. So‘qmoqlarning kerakli joylariga shiyponchalar qurilsa yaxshi bo‘ladi. Gidlar shu shiyponchalarda turistlarga tabiat haqida gapirib beradi, bu yerga ichimlik suvi va boshqa zarur narsalar qayerdaligini bildiruvchi ko‘rsatkichlar va belgilar o‘rnataladi.

Tashrif buyuruvchilarni zarur ma’lumotlar bilan ta’minlash va tarjima ular o‘zlarining tushinishlari va mas’uliyatni his qilishlari uchun juda muhim omil bo‘ladi. Bu esa, qo‘riqlanadigan hududlarni qo‘llab-quvvatlashga qo‘shilgan hissa hisoblanadi.

Bu omillarni rivojlantirish quyidagi tadbirlar orqali amalga oshirilishi mumkin:

- Axborotlar va ko‘rsatkich taxtasi. Qo‘riqlanayotgan hududning kiraverishiga axborotlar taxtasi (shchiti) o‘rnataladi;

- Tashrif buyuruvchilar uchun ahloq kodeksi. Halqaro ahloq normalari tamoyillariga va mavjud ahloq kodekslariga asoslanib, qo‘riqlanadigan hududlarga tashrif buyuruvchilar uchun Ahloq kodeksi ishlab chiqilishi lozim. Bu kodeksni turoperatorlar, qo‘riqxonalar ma’muriyati va mahalliy uyushma provayderlari orqali tarqatish mumkin;

- Tashrif buyuruvchilar markazi. Besh–Orol qo‘riqxonasida tashrif buyuruvchilar uchun muzey markazi, Ugam–Chotqol tabiiy bog‘ida o‘lkashunoslik muzeyi ochish lozim;

- Ugam–Chotqol tabiiy bog‘i hamda O‘zbekistondagi uchta turistik hududning o‘ziga xosligi to‘g‘risida qo‘llanmalar chiqarish. Hududning o‘ziga xos barcha afzalliklaridan foydalanish uchun bog‘ va maskanlar tashrif buyuruvchilar uchun hududlarning tarixi yoritilgan oddiy broshyura, marshrutlar belgilangan turistik xarita, taklif qilinadigan xizmatlar, ularning narxi (kirish haqi) ko‘rsatilgan ro‘yxat va Ahloq kodeksi bilan ta’minlanishi lozim. Broshyurani o‘zbek, rus va ingiliz tillarida chiqarish mumkin.

Hozirgi vaqtgacha Chotqol vodisiga tashrif buyurgan turistlar soni unchalik ko‘p emas. Keyingi yillarda Ugam–Chotqol tabiiy bog‘iga keluvchi turistlar soni ancha ko‘payadi (lekin har qaysi manzilda har xil bo‘ldi).

Ekoturizmning imkoniyatlari maqsadli turistik bozorlarga ma’lum. Biroq, yakka turistlar uchun ham, turoperatorlar uchun ham keng ko‘lamli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan axborotnomalar yo‘q, ayrim turistik kompaniyalargina o‘z tadbirilarini o‘tkazishadi, xolos. Mahalliy uyushma doirasidagi turizm birgalikdagi reklama kompaniyasiga muhtoj. Lekin turistik loyihalarning provayderlari, bog‘ menejmenti yoki mahalliy hokimiyat turistik bozor uchun o‘z strategiyalarini yaratishlari va o‘zlarining reklama materiallarini ishlab chiqishlariga imkon berilsa, yaxshi bo‘lardi. Ommaviy talab sharoitida bular ham o‘z natijasini berishi mumkin.

Internet ekoturizm bo‘yicha zarur ma’lumotlar to‘plangan eng muhim axborot vositasiga aylanib bormoqda. Internetda uchta hudud bo‘yicha ekoturizmga bag‘ishlangan sahifalar, yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu bois

o‘rganilayotgan uchta hudud – Xumson, Chimyon, Burchmulla Internet orqali reklama qilinadigan bo‘lsa, uning sahifalarida quyidagi ma’lumotlar bo‘lishi lozim:

- qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar to‘g‘risida;
- hududning madaniyati va tarixi to‘g‘risida;
- ayni hudud doirasida transport (tashish) variantlar to‘g‘risidagi;
- uyushma mahalliy guruhlari va turoperatorlar taklif qilayotgan turlar va paketlar to‘g‘risida;
- joyning xaritasi;
- mumkin bo‘lgan marshrutlar;
- mahalliy xizmatlar provayderlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

Bu masala IREX ning tashkiliy yordamida “Rabat Malik” sayohatchilar assotsiatsiyasi tomonidan qisman bajarilgan. Ushbu vebportallar:

<http://humsan.freenet.uz>,

<http://chimgan.freenet.uz>,

<http://brichmulla.freenet.uz> veportallarda uchta hudud – Xumson, Chimyon va Burchmulla hududlari to‘g‘risidagi qisqacha axborotlar qo‘yilgan.

O‘zbekistonning xususiy turistik tashkilotlari assotsiatsiyasi KATOS orqali marketing va reklamaning roli ham katta. Marketing mahalliy uyushmani rivojlantirishda asosiy tutib turuvchi omil hisoblanadi. Alovida xizmatlar provayderining marketing salohiyatini yaxshilash uchun turistik firmalar bilan uzviy hamkorlik qilish lozim. Marketingga doir navbatdagi tadbirlar assotsiatsiya kanali orqali amalga oshiriladi:

Chimyon-Beldorsoy hududisining xizmatlar provayderini xususiy sayyohlik uyushmasi milliy yo‘l ko‘rsatkichiga kiritish:

- xususiy sayyohlik uyushmasi milliy va hududiy axborot markazlari orqali reklama qilish;
- ZTS/ SOTning turistik mahsulotlarini mahalliy uyushma milliy kitobiga kiritish;
- Chotqol xizmatlar provayderlarini KATOS milliy yo‘l ko‘rsatkichiga kiritish;

- Chotqol xizmatlar provayderlarini KATOS internet sahifasiga kiritish;
- tegishli hududlarni Toshkentdagi 21 ta milliy sheriklik turoperatorlari orqali reklama qilish ([www.cbtkurgyzstan.kg](http://www.cbtkurgyzstan.kg));
- sayohatchilar uchun xalqaro yo‘l ko‘rsatkichlar (trevel servayvl kit, Odissey yo‘l ko‘rsatkichi Kadogunbuk va h.k);
- ZTSN xizmat provayderlarining bronlash tizimida ishtirok etishi (O‘zbekiston turoperatorlari bilan hamkorlikda).

Tabiatni muhofaza qilish maqsadidagi yerlar jumlasiga davlat qo‘riqxonalarini yerlari, milliy va dendrologik bog‘lar, botanika bog‘lari, buyurtmaxonalar (ovchilik buyurtmaxonalaridan tashqari) yerlari kiradi. Ularda muhofaza maqsadlaridan boshqa ishlar taqiqlanadi. Sog‘lomlashtirish maqsadidagi yerlarga tabiiy davolash xususiyatlari ega bo‘lgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil qilish uchun qulay, muayyan muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanish uchun berilgan yerlar kiradi. Rekreatsion maqsaddagi yerlar aholining ommaviy dam olish va turizm uchun muassasalar va tashkilotlarga biriktirib qo‘yilgan yerlardan iborat. Tarixiy-madaniy maqsaddagi yerlar jumlasiga tarixiy-madaniy qo‘riqxonalar, memorial bog‘lar, muqaddas qabrlar, me’moriy yodgorliklar, tarix va madaniyat yodgorliklari joylashgan, tegishli tashkilotlarga doimiy foydalanish uchun berilgan yerlar kiradi.

Qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar (ba’zi hollardan tashqari) fuqarolar uchun umumiyligi kirish mumkin bo‘lgan joylar hisoblanadi. Kirish yoki tashrif buyurish mumkinligi darajasi bog‘ning yoki uning ayrim hududlari, qismlari, obyektlarining belgilangan maqomiga to‘g‘ri mutanosib bo‘ladi. Biorezervatni tashkil qilishda belgilab qo‘yilgan umumiyligi tartibdan tashqari, noyob va yo‘qolib ketish xavfi bo‘lgan o‘simpliklar va hayvonlar turlarini, ular o‘sadigan va yashaydigan muhitni muhofaza qilish maqsadida hududlarning ayrim yerlariga fuqarolar kirishi cheklangan bo‘lishi yoki tegishli davlat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan taqiqlab qo‘yilishi mumkin.

Ekoturizm yordamida sezilarli daromad ko‘rish uchun mahalliy hokimiyat organlarida mulkdorlik tuyg‘usini rivojlantirish lozim. Shuning uchun ularni

barcha muhim masalalarni hal qilishga jalg qilish kerak yoki bu masalalarni ularning o‘zlarini hal qilishlari lozim. Biroq, turizmni rivojlantirishga doir muhim masalalarni hal qilish yoki turistik kompaniyani aniq boshqarish to‘g‘risida gap ketganda, hozir rivojlantirish va hamkorlikka doir tashkilotlarda keng tarqalgan aloqadorlik tamoyilini amalga oshirishda har gal turizmda professional mahorat zarurligi tufayli muayyan cheklashlarga duch kelinadi. Bunda butun “sir-asror” shundaki, bir tomondan, professional konsaltingni o‘qitib- o‘rgatish, moliyaviy subsidiyani optimal joriy qilish, ikkinchi tomondan, shaxsiy tashabbus aloqadorlik hissini uyg‘otish va joylarda xizmatlar ko‘rsatishni yo‘lga qo‘yish uchun bu aytilganlarni yaxlit holda uyg‘unlashtirish lozim.

Ko‘pchilik ishtirokchilarning kuchlarini birlashtirib amalga oshiriladigan turistik loyihalar joylardagi yakka-yakka tashabbuslardan ustun qo‘yilishi zarur, shundagina maksimal ijtimoiy samara beradigan daromad darajasiga erishiladi. Biroq, samaradorlikni oshirish maqsadida qishloq ma’muriy organining sezilarli qo‘llab-quvvatlashiga suyana oladigan kichik-kichik operativ guruhlarni ham tuzish lozim. Ularni bir-birlariga qarama-qarshi qo‘ymaslik lozim. Bundan tashqari, turizmdan tushadigan daromadning ma’lum bir ulushini qishloqdagi o‘zini-o‘zi boshqarish organlari hisobiga ham o‘tkazish maqsadga muvofiq, chunki, mahalliy aholi ham ayrim turistik xizmatlarni ko‘rsatishi lozim.

Mahalliy tashabbuslar hududiy assotsiyasini tuzish ham zarur. uning doirasida turistik bozorga olib chiqish va ijtimoiy manfaatlarni ilgari surishga qaratilgan qo‘shma dasturlarni amalga oshirish mumkin.

### **2.3. O‘zbekistonning ekoturistik hududlarini rivojlantirish istiqbollari**

Ekologik turizm o‘tgan asrning oxirlarida jahon sayyohlik bozoriga astasekin kirib kela boshladи. Hozirgi kunga kelib esa jadal sur’atlarda rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biriga aylandi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning turizm industriyasi asosan ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekspertlarning ma’lumotlariga qaraganda ekologik turizm dunyo turizm bozorining 10-20 %ini qamrab olgan, o‘sish sur’ati esa turizm industriyasining umumiyl o‘sish sur’atidan biri necha marotaba yuqori.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari ichida ekologik turizmni rivojlanishi uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan mamlakatdir. Xususan, O‘zbekistonga turistik yoki xususiy yo‘nalish bo‘yicha tashrif buyuruvchi shaxslarni kamida 10% i o‘z sayyohatlarining ekologik jihatlari bilan qiziqadi. Ular tabiiy hududlar (bog‘lar, tog‘lar, o‘rmonlar, ko‘llar) ga tashrif buyurishadi, yo bo‘lmasa, yaqinroq qishloq joylarga bir kunlik ekskursiya qilishadi. Ularning kamida 60 % aralash turga ehtiyoj sezishadi, xususan, etnografiya bilan ekologiyaga qiziqishadi.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlanishi nafaqat tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni ona tabiatimizga jalb etish, noyob o‘simliklar va hayvonot dunyosini saqlash va ko‘paytirish muammolarini hal qilishga, balki shu bilan birga iqtisodiy, ijtimoiy sharoitni yaxshilash, aholini yangi ish joylari bilan ta’minlashda yaxshi samara beradi.

Respublikamizda soha tadqiqotchilar tomonidan ekologik turizmni jadal sur’atlarda rivojlantirish maqsadida mintaqalarni ekologik – iqtisodiy rayonlarga ajratib o‘rganmoqdalar. Mintaqamizdagi har bir iqtisodiy rayonda ekologik turizmni rivojlantirish uchun o‘ziga xos takrorlanmas tabiiy shart-sharoitlar mavjud.

Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatini o‘z tarkibiga oluvchi Quyi Amudaryo mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirishning muhim ahamiyati quyidagi natijalar berishi bilan belgilanadi:

- har bir tabiiy-geografik majmuaning betakror ekoturizm imkoniyatlari mavjud, ya’ni o‘ziga xos hududiy xususiyatlarga ega. Iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ekoturizmni tarixiy-madaniy turizm bilan birga olib borish, jumladan, Xorazm viloyatining betakror va hamisha navqiron Xiva shahriga tashrif qiladigan sayyohatchilarini hududning ekologik vaziyati bilan tanishtirish;
- xorij olimlari hamda tadqiqotchilarini mazkur hudud (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati)ga jalb qilish, ularning ilmiy tadqiqotlari natijalari va xulosalarini keng miqyosda muhokama qilib, shu asosda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish orqali ekologik muammolarni yengillashtirishdan iborat.

Quyi Amudaryo mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirish uchun ushbu hududdagi ekoturizm obyektlar haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq. Mintaqadagi ekoturizmni rivojlantirish obyektlaridan biri hududining deyarli katta qismi Xorazm viloyatida joylashgan Qizilqum davlat qo‘riqxonasi hisoblanadi.

Qizilqum davlat qo‘riqxonasi 1971 yilda 3958 ga maydonda tashkil qilingan bo‘lib, hozirgi kunda qo‘riqxonaning umumiyligi yer maydoni 10311 hektardan iborat. Qo‘riqxonada ikki viloyat hududida joylashgan bo‘lib, shundan – 8844 ga Xorazm viloyatining Xozarasp tumanida, 1467 ga Buxoro viloyatining Romitan tumanida joylashgan.


Bugungi kunda Qizilqum davlat qo‘riqxonasida 135-140 bosh Buxoro bug‘isi, 50-60 bosh kaban, 3-6 bosh kiyik, 8-10 bosh sassiq kuzan, 40-50 bosh tulki, 50-60 bosh shoqol, 200-250 bosh quyon, hamda 2 juft burgut, 3 juft cho‘l burguti, 3000-3200 bosh qirg‘ovul, 300-400 bosh qarg‘a, 120-150 bosh baklan, 50-60 bosh kutonlar mavjud. Mazkur qo‘riqxonada ekologik turizmni rivojlanishi tabiiy o‘ziga xos qum va daryo bo‘yi o‘rmonzorlarini muhofaza qilishni, mavjud o‘simlik va hayvonot dunyosini genetik fondini saqlab qolishni, ularni tabiiy holda saqlanishini ta’minalash va tiklashni, noyob bo‘lgan Buxoro bug‘isini tarixiy yashash joylarini qo‘riqlashni, ularni bosh sonini tiklashni, tabiiy jarayonlar kechishini tadqiq va tahlil qilishni, tabiat muhofazasi ilmiy asoslarini yaratishni va ekologik bilimlarni targ‘ib qilish imkonini beradi.

So‘nggi yillarda Xorazm viloyatida turistlarga xizmat ko‘rsatish sifati sezilarli darajadi o‘zgardi, ya’ni yangi mehmonxonalarning barpo etilishi va turizm infratuzilmasining rivojlanishi natijasida turizm xizmatlari rivojlanish tendensiyasiga ega.

2017 yilda faoliyat yuritgan turistik firmalar soni 8 tani tashkil etib, ulardan 7 tasi (87,5%) kichik korxona va mikrofirmalardan iborat. (2.3.1-diagramma).

### 2.3.1-diagramma<sup>7</sup>


#### Xorazm viloyatida turistik faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar



2017 yilda xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni 311,9 ming nafarga etib, ulardan 51,3 ming nafarni (16,4%) xorijiy tashrif buyuruvchilar, 260,7 ming nafarni (83,6%) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tashkil etdi (2.3.2-diagramma).

### 2.3.2-diagramma<sup>8</sup>

#### 2017 yilda xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni



<sup>7</sup> <http://www.xorazmstat.uz>. Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari

<sup>8</sup> <http://www.xorazmstat.uz>. Xorazm viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari

Shuningdek, bugungi kunda Xorazm viloyatida ekoturizmni rivoj-lantirishga qaratilgan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- viloyatning Xiva tumanidagi “Gauk-ko‘l”, “Eshon Ravot”, “Kichkina Duzloq” ko‘llari va Amudaryo bo‘yida ekoturizm infratuzilmasini barpo etish;
- viloyatning Tuproqqa'l'a massivida turizmning ekzotik turini (cho‘lda tuyalarda sayyohat) tashkil qilish;
- xorijiy va ichki sayyohlar oqimini ko‘paytirish maqsadida viloyatning namunali fermer xo‘jaliklarida (Xonqa, Yangibozor, Bog‘ot tumanlarida) qishloq turizmini rivojlantirish
- viloyatining bugungi kundagi ekologik vaziyatidan kelib chiqqan holda, xalqaro ekologiya bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, shuningdek, xalqaro ahamiyatga molik ilmiy-amaliy anjumanlar, simpoziumlar tashkil qilish (Xorazm viloyati tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi, Eko-harakat, Urganch Davlat universiteti).
- viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan turistik firmalar tomonidan voha tabiatining so‘lim go‘shalarini aks ettiruvchi ekoturistik obyektlar xaritalarini, ekoturizm marshrutlarini, ekoturizm ekskursiyalarini ishlab turizm bozoriga chiqarishni tashkil etish;
- ommaviy axborot vositalari orqali viloyatning ekoturistik hududlari to‘g‘risida ma’lumotlar berish madaniy landshaftlarini aks ettiruvchi fotolavha va suratlarni chiqarishni tashkil qilish;
- viloyatning oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ekoturizm yo‘nalishi bo‘yicha malakali mutaxassislarini tayyorlashni yo‘lga qo‘yish (Urganch turizm va tadbirkorlik kasb hunar kolleji, Urganch Davlat universiteti);

Quyi Amudaryo mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirish uchun yana bir muhim obyektlardan biri bu Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan «Baday-to‘qay» davlat qo‘riqxonasi hisoblanadi. «Badayto‘qay» davlat qo‘riqxonasi

Amudaryoning o‘rta oqimidagi qirg‘oqlaridagi to‘qayzor tabiatiga qo‘silib ketadigan Qizilqum cho‘li hududlarida joylashgan bo‘lib, cho‘llarimizning tipik tabiatini va bu tabiat bilin bog‘liq hayvonot olamini tasvirlaydi.

«Baday-to‘qay» davlat qo‘riqxonasi 1971 yilda tashkil qilingan bo‘lib, yer maydoni 6642 gani tashkil qiladi. Bugungi kunda qo‘riqxonada hayvonlarning 135 turi (shundan 11 turi O‘zbekiston Respublikasi qizil kitobiga kiritilgan), o‘simpliklarning 160 turi (shundan 2 turi O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan) mavjuddir.

“Baday-to‘qay” davlat qo‘riqxonasida yovvoyi tabiatni asragan holda, o‘zi tegishli bo‘lgan hududda o‘rta asrlarga oid tarixiy-madaniy yodgorliklar ham joylashgan. Xususan, qo‘riqxona hududida IX-XI asrlarga mansub bo‘lgan “Janpiq qal’a” joylashgan bo‘lib, ushbu zonada ekologik turizm bilan birga tarixiy-madaniy turizni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi. Shuningdek, “Baday-to‘qay” davlat qo‘riqxonasi “Buyuk ipak yo‘li” oltin xalqalari yo‘lida joylashganligi ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ya’ni qo‘riqxona hududida ichki va halqaro sayyoohlар uchun “Buyuk Ipak yo‘lida Baday-to‘qay qo‘riqxonasi” turistik marshrutini ishlab chiqish hamda qo‘riqxona hududiga zarar keltirmagan holda, ilmiy-ma’rifiy va ilmiy-ekologik turizm xizmatlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan obyektlardan yana biri Orol va orol bo‘yi hududi hisoblanadi. Ya’ni, mintaqada amalga oshirilayotgan ekoturistik marshrutlar bir paytning o‘zida ham Orolning qurigan, ham uning ta’sirida bo‘lgan Orol atrofi hududlarini qamrab olishi maqsadga muvofiq. Bunday sharoitda tarixiy obidalarga uyushtirilgan turistlarni ekoturizmga ham jalb qilish maqsadida turistik marshrutlar kompleks xarakter kasb etadi.

Ekoturistik marshrutlarni shakllantirishda turistlar harakatini turli vositalar orqali amalga oshirishni ko‘zda tutish kerak. Buning uchun turistlar harakatini piyoda, tuyalarda, otlarda tashkil qilish bilan birga, samolyot va vertolyotlar orqali ham amalga oshirilishini ko‘zda tutish mumkin bo‘ladi. Chunki Orol bo‘yidagi

ekologik holatni kuzatishni juda ko‘p sayyoohlar xohlashlari mumkin. Ular uchun eng qulayi samolyot va vertolyotlar hisobalanadi.

Mazkur hududning yana bir diqqatga sazovor joyi shundaki, kembriy va kembriygacha bo‘lgan davrda burmalangan tog‘ jinslari ochilmalari ham topilgan. Bu noyob topilma balandligi 485 metrga teng bo‘lgan Sulton Uvays tog‘ida joylashgan. Bu hududga ham maxsus ekoturlar uyushtirish mumkin. Qizilqumning g‘arbiy qismida Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab Sulton Uvays tog‘igacha bo‘lgan masofaning manzarasini ham ekologik turizm obyektiga bemalol kiritish mumkin. Bu yerdagi manzara ham o‘ziga xos tarovatga ega. Bular bir tomonidan daryo bo‘lsa, ikkinchi tomonidan tog‘ va ular o‘rtasidagi turli o‘simplik va hayvonot dunyosidir.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash lozimki, Respublikamizning Quyi Amudaryo mintaqasida ekoturistik marshrutlar tashkil qilish uchun yetarlicha tabiiy shart sharoitlar mavjud. Shu nuqtai nazardan, ekologik turizmni mazkur mintaqada rivojlanishi bir tomondan ekologik muammolarni yengillashtirsa, ikkinchi tomondan, mintaqani ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan rivojlanishiga o‘zining katta hissasini qo‘shadi deb o‘ylamiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad-jamiyat ehtiyojlarini qondirish, xizmat ko‘rsatish sifati va hajmini kengaytirilgan holda sohaga bozor iqtisodiyotining dunyo standartlari darajasidagi modeli kirib kelishini ta’minlashdir. Jamiyat ehtiyojini qondirish turistlar talabini ichki va tashqi turizm xizmathariga aholining ekskursion xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish shu bilan xizmat importi va eksportiga bo‘lgan xalqaro talabni o‘rganish bilan bog‘liqligi masalaning nechog‘li muhimligini ko‘rsatadi.

Shulardan kelib chiqib, O‘zbekiston turizm xizmati bozorida ekoturizmning o‘rni va ahamiyatini tadqiq qilish davomida olingan natijalar quyidagi xulosalarni beradi.

1. Ekoturizm an'anaviy turizmning muhim qismi bo‘lib, shakllanishi jihatidan yangi istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Hozirgi paytda u umumiy sayyohlik bozorining 10-20 foizini egalladi, o‘sish sur’atlari bo‘yicha esa yil sayin ortib bormoqda.
2. O‘zbekistonda ekoturizmning salohiyati katta bo‘lishiga qaramasdan undan foydalanish darjasasi ancha past. Mamlakatning tabiatni landshaftlarga, noyob o‘simlik va hayvonot dunyosiga, nodir, xalqaro ahamiyatga molik arxeologik qazilmalar, paleontologik qoldiqlar, geologik kesimlar va tabiiy yodgorliklarga boyligi ekoturizmni keskin rivojlantirish imkoniyatiga egaligidan dalolatdir.
3. Ekoturizmga faqat daromad manbai, ish bilan bandlikni ta’minlash vositasi, kishilarga zavq-shavq, estetik qoniqish bag‘ishlaydigan hordiq omili debgina emas, balki, ekomuhitni asrab-avaylash, parvarish qilish, yaxshilash yo‘llaridan biri sifatida ham qarash lozim.
4. Ko‘pchilik hollarda ekoturizmning muqobili sifatida “tabiiy turizm”, “barqaror turizm”, “yashil turizm”, “mas’uliyatli turizm”, “xayriya turizmi” kabi atamalar ishlatiladi. O‘rtasida umumiylilik bo‘lsada, ular bir-birining sinonimi bo‘la olmaydi. Lekin ularning hammasi, mazmunan tabiatga sayohat, tabiatni muhofaza qilish va shu asosda atrof-muhitni himoyalashni maqsadini anglatadi.
5. Ekoturizmning mahalliy uyushma (birlashma) darjasasi sayohatni tabiat

qo‘ynida tashkil etishning asosiy shakli bo‘lib, bu holatda turizm ustidan asosiy nazorat, uning rivojlanishi va uni boshqarish, daromadning katta qismi uyushmaga tegishli bo‘ladi. Turizmning bu shakli mantiqan fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish shakli hisoblangan “mahalla” tushunchasi bilan uyg‘unlashib ketadi.

6. O‘zbekistonning alohida qo‘riqlanadigan tabiiy hududlari (davlat qo‘riqxonalari, milliy bog‘lar, ixtisoslashtirilgan muassasalar, qo‘riqxonalalar, buyurtmaxonalar, tabiat yodgorliklari) ekologik turizmni rivojlantirishga katta sharoit hozirlaydi va soha taraqqiyotiga asos bo‘ladi.

7. Iqtisodiy hudud va ekoturistik rayonlarda ekologik turizmni tashkil etish va rivojlantirish shart-sharoitlari bir xil emas. Ular infratuzilmasining rivojlanishi jihatidan bir-birlaridan jiddiy farq qiladi. Bunday holat xorijiy sayohatchilarning e’tiroziga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun bu jabhaga mahalliy uyushmalar, homiylar mablag‘lari bilan birga davlat budgetidan ham mablag‘lar ajratilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

8. Ekoturizm shakllari xilma-xil bo‘lib, ularning tarkibi doimo o‘zgarib turadi. Ayrim shakllari rivojlansa ayrimlarining ahamiyati pasayish tendensiyasiga ega. Shuni inobatga olib, ekoturizm shakllarini hududlar bo‘yicha va hudud (mintaqa) rayonlari ichida ixtisoslashtirish zarur.

9. O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish bo‘yicha har jihatdan muvofiqlashtirilgan kompleks yondashuv ijrosini ta’minlash uchun barcha manfaatli tomonlarni jalb qilish lozim. Bu boradagi katta muammolardan biri transchegaraviy muammodir. Bu muammo avvalo, G‘arbiy Tyan-Shan hududiga tashrif buyuradigan turistlarning chegarani kesib o‘tish bilan bog‘liq. Uni hal etish uchun O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston bo‘yicha chegarada kesib o‘tish mumkin bo‘lgan maxsus joylar ochish talab etiladi.

10. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish respublikaning barqaror taraqqiyot strategiyasidagi uzviy qismga aylanishi zarur. Buning uchun ekoturizm infratuzilmasini yaratish, erkin iqtisodiy hududlar, faoliyatini kuchaytirish, bu maqsadga yo‘naltirilgan chet el investitsiyalarini kafolatlash, ekoturizm yo‘nalishidagi tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida qonunlar yaratilishini

taqozo qiladi.

11. Qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar, buyurtmaxonalar negizida ekologik turizmni rivojlantirish ancha istiqbolli hisoblanadi, chunki bunday manzillarda ma’lum darajada infratuzilma mavjud. Shu tufayli birlamchi investitsiya talab etimasa-da, sayyohlardan keladigan daromadlarning bir qismini shu sub’ektlarni rivojlantirishga sarflash lozimligi asoslangan.

12. Respublikamizda soha tadqiqotchilari tomonidan ekologik turizmni jadal sur’atlarda rivojlantirish maqsadida mintaqalarni ekologik – iqtisodiy rayonlarga ajratib o‘rganmoqdalar. Mintaqamizdagi har bir iqtisodiy rayonda ekologik turizmni rivojlantirish uchun o‘ziga xos takrorlanmas tabiiy shart-sharoitlar mavjud.

13. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatini o‘z tarkibiga oluvchi Quyi Amudaryo mintaqasida ekologik turizmni rivojlantirishning muhim ahamiyatga molik ekanligi asoslandi.

14. O‘zbekistonda qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar, biologik rezervatlar va milliy tabiiy bog‘larda boshqa mintaqalarda uchramaydigan noyob hayvonot va o‘simlik dunyosi uchun shart-sharoitlar, infratuzilma hamda moddiy-texnika bazasi yetarli darajada rivojlanmagan. Ekoturizm bilan shug‘ullanadigan mas’ul xodimlar va mahalliy aholining sanitariya va kasb madaniyatini takomillashtirish bo‘yicha talaygina tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shularga asoslanib quyidagilarni taklif etamiz:

- resurslarning samarali ishlatilishi, kichik va xususiy tadbirkorlik keng miqyosda rivojlantirishni;
- zamonaviy turistik majmualar bunyod etish, ularni xalqaro standartlarga moslash, xorijiy investitsiya jalg qilishni;
- yirik xorijiy firmalar bilan turistik xizmat ko‘rsatishning yangi innovatsion shakllari tashkil qilinishini;
- ekoturizmning jahon turistlari talabi katta bo‘lgan ekoturizm yo‘nalishlari bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar ko‘paytirilishini;
- soha uchun yuqori malakali menejer va tadbirkor kadrlarni tayyorlash va

qayta tayyorlov yo‘lga qo‘yilishini;

- jahon ekoturizmidagi tez o‘zgaruvchan dinamik holatga olgan, moslashish va undan samarali foydalanish choralarli ishlab chiqishlishini;
- jahon ekoturizm bozoridagi talab va taklif dinamikasini o‘rganib o‘sib borayotgan talabga mos marketing va reklama faoliyati faol yo‘lga qo‘yilishini;
- jahon ekoturizmi bozoridagi o‘zgarishlarni, tarixiy turizmga qiziquvchilar talabini hisobga olib tarixiy obidalarga ekoturistik marshrutlar tashkil etilishi uchun reklamaning ommabop shakllaridan foydalanish choralarini ishlab chiqish bo‘yicha xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilishini;
- jahoning ekoturistik mahsulotlarni reklama qilish bo‘yicha tajribasiga tayangan holda reklama uzatish kanallarini aniqlash, vakillari ekoturistik safarlarga ko‘p chiqadigan mamlakatlar bozoriga kirib borishga erishish choralar;
- jahonda keng tarqalgan internet tarmoqlaridan turmahsulotlarni reklama qilishda unumli foydalanish yo‘llari ishlab chiqish;
- rivojlangan mamlakatlarning ekoturistik mahsulotini xalqaro bozorlarda sotish borasidagi tajribasi o‘zlashtirilishi va turmahsulotlar sotuvining istiqbolli yo‘llari tashkil qilinishi.
- respublikada ekoturizmning maxsus yo‘nalishlari ishlab chiqilishi va moliyalashtirilishi;

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, respublika Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari**

- 1.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.:O‘zbekiston, 2003 y.
- 1.2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida»gi PF-5308-sod Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2018 yil 29 yanvar, 4-sod, 68-modda.
- 1.3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlari yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan” Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi, 2018 yil 19 yanvar.
- 1.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lish kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 31 b.
- 1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. // “Xorazm haqiqati” gazetasi. 2017 yil 18 yanvar. № 5 (19351).
- 1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF - 4947-sod Farmoni.
- 1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 15-sod, 248-modda)
- 1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Xususiylashtirilgan

korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida (O`zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to`plami, 2017 y., 16-son, 270-modda).

- 1.9. Turizm to`g`risida. O`zbekiston Respublikasining qonuni. 1999 y. 20 avgust.
- 1.2. Tabiatni muhofaza qilish to`g`risida. O`zbekiston Respublikasi qonuni. 1992 yil 9 dekabr.
- 1.3. “O’simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida.” “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to`g`risida.” O`zbekiston Respublikasi qonunlari. 1997 yil 26 dekabr.
- 1.4. “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to`g`risida.” O`zbekiston Respublikasi qonuni. 2004 yil 3 dekabr.
- 1.5. O`zbekiston Respublikasida 2006–2010 yillarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2006 yil 17 aprel.
- 1.6. O`zbekistonda turizm sohasi uchun malakali kadrlar tayyorlash to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 1999 yil 30 iyun
- 1.7. O`zbekistonda turizmni rivojlantirishning 2005 yilgacha bo‘lgan davlat dasturi to`g`risida. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 1999 yil 15 aprel.
- 1.8. Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashda O`zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to`g`risida. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 1995 yil 2 iyun.
- 1.9. "O`zbekturizm" milliy kompaniyasi faoliyatini yanada takomillashtirish to`g`risida. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2004 yil 28 iyul.
- 1.10. Turizm faoliyatini litsenziyalash to`g`risidagi nizomni tasdiqlash haqida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2003 yil 11 noyabr.

## **II. Darsliklar, o‘quv qo‘lanmalari, monografiyalar va avtoreferatlar**

- 2.1. Abdusalomova N.M. Xalqaro turizmda marketing jarayonining

rivojlanishi («O‘zbekturizm» MK misolida). iqtisd fanlari nomzodligi dissertatsiyasi. –T.: 2004.

2.2. Александрова А.Ю. Международный туризм. –М: ГРИФ, 2004. – 470 стр.

2.3. Балабанов И.Т., Балабанов А. И. Экономика туризма, учебное пособие. - М.: Финансы и статистика. 2003. 176 с.

2.4. Балалова Е.И. Сервисная деятельность: учет, экономический анализ и контрол: Учебное пособие / Е.И.Балалова, О.В.Каурова. – М.: «Дело и Сервис», 2006. – 288 с.

2.5. Барлоу Дж., Стюарт П. Сервис ориентированный на бренд – новое конкурентное преимущество. – М.:ЗАО «Олимп-бизнес», 2006. – 772 стр.

2.6. Басовский Л.Е. Прогнозирование и планирование в условиях рынка. Учебное пособие. –М.: Инфра-М, 2006. – 260 с.

2.7. Белянский В.П. Прогнозирование в индустрии гостеприимства и туризма: учебник. Под общей ред. Заслуженного деятеля науки Российской Федерации, д.э.н., проф. В.П. Белянского. – М.: Изд-во Рос. экон. акад., 2005. –278 с.

2.8. Биржаков М.Б. "Введение в туризм". "Изд. Дом Герда", 2003. –319 с.

2.9. Биржаков. М.Б. "Введение в туризм". Москва – С.Петербург: Изд. Невский фонд. Торговый Дом "Герда", 2000. –321 с.

2.10. Богалдин - Малых В.В. Маркетинг и управление в сфере туризма и социально-культурного сервиса: туристические, гостиничное - ресторанные и развлекательные комплексы: учебное пособие. – М.: Издательство Московского психолого-социального института; Воронеж: Издательство НПО «МОДЕК», 2004. – 560 с.

2.11. Богданов Е.И., Кострюкова ОН., Орловская В.П., Фенин П.М. Планирование на предприятии туризма. – СПб.: Бизнес пресса, 2003. – 288 с.

2.12. Боголюбов Б.С., Орловская В.П. Экономика туризма. – М.: «Академия» 2005– 192 с.

### **III. Internet saytlari**

- 3.1 [www.goy.uz](http://www.goy.uz) – O‘zbekiston hukumatining rasmiy sayti.
- 3.2. [www.stat.uz](http://www.stat.uz). –O‘zbekiston davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
- 3.3. [wwwj.mnto.org](http://wwwj.mnto.org) – BMTning Jahon turizm tashkilotining rasmiy sayti.
- 3.5. [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) – «O‘zbekiston Havo Yo‘llari» milliy aviakompaniyasining rasmiy sayti.
- 3.6. [www.uzrai!way.uz](http://www.uzrai!way.uz) – «O‘zbekiston Temir Yo‘llari» Davlat hissadorlik temiryo‘l kompaniyasining rasmiy sayti.
- 3.7. [www.cer..uz](http://www.cer..uz): – Iqtisodiy tadqiqotlar markazining sayti.
- 3.8. [www.apta-uz.com](http://www.apta-uz.com) – O‘zbekiston xususiy turistik firmalari assotsiatsiyasining sayti.
- 3.9. [www.unesco.org](http://www.unesco.org) – YuNYeSKOning rasmiy sayti.
- 3.10 [www.uzintour.uz](http://www.uzintour.uz) – O‘zintur turizm kompaniyasining sayti.
- 3.11 [www.statistics.uz](http://www.statistics.uz) – O‘zbekiston iqtisodiy statiskasiga oid sayti.